Funded by
the European Union

# “ХАЛҚАРО КРЕДИТ МОБИЛЛИК: ТАЪЛИМ ВА ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР СИФАТИНИ ОШИРИШДАГИ АҲАМИЯТИ”

IX республика илмий-амалий
конференцияси материаллари

# INTERNATIONAL CREDIT MOBILITY: ROLE IN IMPROVING QUALITY OF EDUCATION AND SCIENTIFIC RESEARCH

Materials of IX scientific-practical conference



Тошкент – 2025

**Ўзбекистон Республикаси**
**Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги**
**Ўзбекистондаги Эрасмус+ Миллий офиси**
**Олий таълим бўйича мутахассислар миллий жамоаси**

# INTERNATIONAL CREDIT MOBILITY: ROLE IN IMPROVING QUALITY OF EDUCATION AND SCIENTIFIC RESEARCH

Materials of the IX scientific-practical conference

# “ХАЛҚАРО КРЕДИТ МОБИЛЛИК: ТАЪЛИМ ВА ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР СИФАТИНИ ОШИРИШДАГИ АҲАМИЯТИ”

IX республика илмий-амалий конференцияси материаллари

# «МЕЖДУНАРОДНАЯ КРЕДИТНАЯ МОБИЛЬНОСТЬ: РОЛЬ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ И НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ»

Материалы IX республиканской научно-практической конференции

Тошкент – 2025

Ушбу тўпламга Европа Иттифоқининг Erasmus+ олий таълим бўйича экспертлар миллий гуруҳи ташаббуси билан ташкил этилган "Халқаро кредит мобиллик: таълим ва илмий тадқиқотлар сифатини оширишдаги аҳамияти" мавзусидаги IX республика илмий-амалий конференцияси материаллари киритилган.

Мазкур анжуман Ўзбекистон ёшларининг хорижий мамлакатларда мобиллик дастури орқали малака ошириш жараёнида орттирган билим ва тажрибаларини ўрганиш ҳамда натижаларнинг мамлакатимизда олиб борилаётган таълим жараёни ва илмий тадқиқот ишларида жорий этилиш масалаларини муҳокама қилиш мақсадида ташкил этилган.

*Таҳрир ҳайъати: А.Абдурахманова, Г.Рихсиева.*

*Тўплам Ўзбекистондаги Миллий Erasmus+ офисининг ташкилий кўмаги асосида нашр қилинган.*

*Нашр Европа Иттифоқининг Erasmus+ дастури томонидан молиялаштирилган.*

*Мазкур нашр материаллари Европа Комиссияси фикрини акс эттирмайди.*

---

В данный сборник включены материалы IX республиканской научно-практической конференции на тему «Международная кредитная мобильность: роль в повышении качества образования и научных исследований», организованной по инициативе национальной команды экспертов высшего образования Erasmus+ Европейского Союза.

Целью этой конференции является повышение эффективности образовательного процесса и научных исследований молодежи Узбекистана, за счет обмена знаниями, опытом, приобретёнными в период мобильности и внедрения результатов научных разработок в Узбекистане.

*Редакционная коллегия: А.Абдурахманова, Г.Рихсиева.*

*Сборник издан при организационной поддержке Национального Erasmus+ офиса в Узбекистане.*

*Издание профинансировано программой Erasmus + Европейского Союза.*

*Материалы данной публикации не отражают мнения Европейской Комиссии.*

---

This collection includes materials from the IX republican scientific and practical conference on the topic "International credit mobility: the role in improving the quality of education and research", organized by the initiative of the national team of experts of higher education Erasmus+ of the European Union.

The purpose of this conference was to increase the effectiveness of the educational process and scientific research of the youth of Uzbekistan, through the exchange of knowledge, experience gained during the period of mobility, and the introduction of the results of scientific developments in Uzbekistan.

*Editorial Board: A. Abdurakhmanova, G.Rihsieva.*

*The collection was published with the organizational support of the National Erasmus+ Office in Uzbekistan.*

*The publication financed by Erasmus+ programme of the European Union.*

*The contents of this publication do not reflect the views of the European Commission.*

© 2025, National Erasmus+ Office in Uzbekistan

## МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT


| | | | |
|---|---|---|---|
| **1.** | **Gulchehra Rixsiyeva** | КИРИШ | **5** |
| **2.** | **Shavkatov Sherali** | ERASMUS+ ICM: CROSSING BORDERS, EXPANDING HORIZONS | **7** |
| **3.** | **Alisher Khaydarov** | ERASMUS+ICM STAFF MOBILITY FOR TEACHING | **11** |
| **4.** | **O‘g‘iljon Abduvaliyeva** | ERASMUS+ ICM XALQARO KREDIT MOBILLIK DASTURI DOIRASIDA EÖTVÖS LORÁND UNIVERSITETIDA O‘TKAZILGAN MA’RUZALAR TAJRIBASI VA UNING AHAMIYATI | **17** |
| **5.** | **Matteo Cecchetti** | ACADEMIC MOBILITY AND RESEARCH EXCHANGE AT THE TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ORIENTAL STUDIES | **23** |
| **6.** | **Bekzod Eshkulov** | FROM UZBEKISTAN TO SLOVAKIA: MY JOURNEY OF ACADEMIC AND CULTURAL GROWTH THROUGH THE NATIONAL SCHOLARSHIP PROGRAMME | **29** |
| **7.** | **Dilshoda Norboyeva** | KREDIT MOBILLIK DASTURINING TALABALA HAYOTIDAGI O‘RNI HAMDA XALQARO TALABA BO‘LISHNING AFZALLIKLARI | **34** |
| **8.** | **Shohjahon Hamidullayev, Ziorjon Abdurahmonov, Azizbek Orazbayev** | ERASMUS+ XALQARO KREDIT MOBILLIK DASTURI DOIRASIDA VENGRIYADA O‘TKAZILGAN ILMIY STAJIROVKA TAJRIBASI | **41** |
| **9.** | **Jasur Sulaymonov** | ERASMUS+ ICM XALQARO KREDIT MOBILLIK DASTURI DOIRASIDA PIZA UNIVERSITETIDA O‘TKAZILGAN STAJIROVKA TAJRIBASI VA UNING AHAMIYATI | **49** |
| **10.** | **Lina Abduakhit** | HOW ACADEMIC MOBILITY SHAPES PERSONAL DEVELOPMENT? A COMPARATIVE VIEW OF TEACHING METHODS IN EUROPE AND CENTRAL ASIA | **58** |
| **11.** | **Elgiza Sobirova** | XALQARO KREDIT MOBILLIGI: TA’LIM VA ILMIY TADQIQOTLAR SIFATINI OSHIRISHDAGI STRATEGIK YONDASHUV | **63** |
| **12.** | **Shamsiqamar Tilovmurodova** | ERASMUS+ ICM XALQARO KREDIT MOBILLIK DASTURI DOIRASIDA EÖTVÖS LORÁND UNIVERSITETIDA O‘TKAZILGAN QISQA MUDDATLI DOKTORLIK MOBILLIGI: TAJRIBA, ILMIY HAMKORLIK VA YANGI YONDASHUVLAR | **75** |
| **13.** | **Igor Vikhrov, Sherzod Ashirbaev** | ACADEMIC MOBILITY AS A TOOL FOR TRANSFORMING MEDICAL EDUCATION: THE EXPERIENCE OF THE TASHKENT PEDIATRIC MEDICAL INSTITUTE IN THE ERASMUS+ INTERNATIONAL STAFF WEEK 2025 | **83** |
| **14.** | **Dildora Yunusova** | ERASMUS+ ICM XALQARO KREDIT MOBILLIK DASTURI DOIRASIDA KAROLI GÁSPÁR REFORMED UNIVERSITETIDA O‘TKAZILGAN MA’RUZALAR TAJRIBASI VA UNING AHAMIYATI | **90** |
| **15.** | **Isaeva Sulyukhan** | ОПЫТ УЧАСТИЯ В ПРОГРАММЕ ERASMUS+: ВЗГЛЯД ИЗНУТРИ | **93-96** |

# КИРИШ

Бугунги глобаллашув ва рақамлаштириш даврида дунё таълим тизими тез суръатларда трансформация қилинмоқда. Замонавий иқтисодиёт, интеллектуал меҳнат бозори ва рақобатга асосланган инновацион муҳит олий таълим муассасалари олдига янги вазифаларни қўймоқда. Ўзбекистонда олиб борилаётган кенг кўламли ислоҳотлар ҳам ана шу глобал тенденциялар билан уйғун ҳолда, таълимни модернизация қилиш, уни халқаро стандартларга яқинлаштириш ва билимли, очиқ фикрлайдиган мутахассислар тайёрлашга қаратилган.

Шу боис, олий таълим тизимининг халқаролашуви, унинг жаҳон мезонларига мослашуви ва жаҳондаги етакчи таълим мактаблари билан интеграцияси – устувор масалалардан биридир. Бугунги кунда университетлар фақат миллий доирада эмас, балки глобал майдонда ҳам рақобат қила оладиган таълим муҳитини яратишга интилмоқда. Бу жараёнда қўшма таълим дастурлари, икки дипломли лойиҳалар, академик алмашинувлар ва халқаро илмий ҳамкорликлар кенгаймоқда. Нуфузли халқаро рейтингларда миллий университетлар юқори натижаларга эришмоқда – бу мамлакатимиз олий таълимининг глобал нуфузи ортиб бораётганининг яққол исботидир.

Халқаро аккредитация, таълим дастурларини жаҳон талабларига мувофиқлаштириш, ўқув жараёнида инновацион методлардан фойдаланиш, рақамли платформалар асосида таълим бериш, халқаро таълим стандартларини жорий қилиш – бугунги куннинг асосий талабларидандир. Айниқса, академик мобиллик бу жараённинг марказий элементи бўлиб, таълим дастурларининг ўзаро уйғунлашувини, тажриба алмашишни ва нуфузли халқаро ҳамкорликларни ривожлантиришни таъминлайди.

Европа Иттифоқининг **Эрасмус+** дастури, хусусан, унинг **Халқаро кредит мобиллик (ICM)** лойиҳалари Ўзбекистон олий таълимини глобал таълим фазосига интеграция қилишда муҳим ўрин тутмоқда. Ушбу лойиҳалар доирасида профессор-ўқитувчилар, тадқиқотчилар ва талабалар етакчи хорижий университетларда таҳсил олиб, замонавий академик муҳит билан танишмоқда, илмий салоҳиятини оширмоқда ҳамда янги билим ва кўникмаларга эга бўлмоқда.

Болонья жараёнининг асосий тамойилларидан бири бўлган кредитларни ўзаро тан олиш тизими ҳам мамлакатимизда тўлиқ йўлга қўйилди. Бу эса, мобиллик лойиҳаларини янада самарали амалга ошириш, халқаро таълим интеграциясини чуқурлаштириш ва университетлар ўртасидаги ишончни мустаҳкамлашга хизмат қилмоқда.

Ушбу “Халқаро кредит мобиллик: таълим ва илмий тадқиқотлар сифатини оширишдаги аҳамияти” мавзусидаги илмий-амалий конференция Эрасмус+ лойиҳалари орқали амалга оширилган ишлар, уларнинг натижалари ва истиқболларини муҳокама қилиш учун муҳим платформа бўлиб хизмат қилади. Тақдим этилган мақолаларда давлат ва жамият тараққиёти учун муhim бўлган – таълим сифатини ошириш, академик ҳамкорликни ривожлантириш,

ўзаро тажриба алмашиш ва инновацион ёндашувларни жорий этиш каби масалаларга алоҳида эътибор қаратилган.

Ишонаманки, конференция барча иштирокчилар учун янги қўшма ташаббуслар, илмий-амалий ҳамкорликлар ва янги кредит мобиллик лойиҳаларини ишлаб чиқишда муҳим туртки бўлади.

Барча иштирокчиларига, хорижий ва маҳаллий ҳамкорларимизга, Эрасмус+ Миллий офисига янги ғоялар, муваффақиятли лойиҳалар ва кўп йиллик самарали ҳамкорлик тилайман.

***Тошкент давлат шарқшунослик университети ректори,***
***Олий таълим ислоҳотлари миллий экспертлар гуруҳи (HERE) аъзоси***
***Рихсиева Гулчеҳра Шавкатовна***

# ERASMUS+ ICM: CROSSING BORDERS, EXPANDING HORIZONS

***Sherali Shavkatovich Shavkatov** – PhD Candidate*
***Institution:** Tashkent State University of Oriental Studies*
***Host institution:** Leiden University, the Netherlands*
**Tel.:** +998 932047404, ***E-mail:*** sheradonis2022@gmail.com

*ERASMUS + staff mobility scheme № 2025-NL LEIDEN*
*10/09/2025 – 17/01/2026*

***Keywords.** Erasmus+ ICM, student exchange, international mobility, cultural exchange, academic experience, personal development, Leiden University, Tashkent State University of Oriental Studies.*

***Annotation.** This article presents the experiences of a PhD student participating in the Erasmus+ International Credit Mobility (ICM) programme at Leiden University. It highlights the impact of international exchange on personal growth, intercultural understanding, and academic development. The narrative covers participation in lectures, workshops, and conferences, as well as daily life in Leiden, exploring academic resources, and interacting with students from diverse backgrounds. The article demonstrates how Erasmus+ broadens perspectives and fosters meaningful connections across cultures.*

## Introduction

In the era of globalization, higher education has transcended national borders, promoting mobility, diversity, and mutual understanding among students and scholars. One of the most effective initiatives in this regard is the Erasmus+ International Credit Mobility (ICM) programme, launched by the European Union to support the internationalization of education. It allows students, researchers, and academic staff from partner countries to participate in short-term mobility at European universities, thereby enriching their academic experiences and intercultural competencies.

Similarly, I have obtained the opportunity to participate in the Erasmus+ ICM student mobility program for PhD students, established between Tashkent State

University of Oriental Studies and Leiden University from October 15, 2025, to January 14, 2026, with full funding provided under the Erasmus+ ICM programme.

When I first stepped into Leiden, I felt as though I had entered a city built entirely for learning. The calm rhythm of the streets, the bicycles gliding by, the sound of church bells echoing over the canals—all of it seemed to whisper that this was a place where ideas could grow. Only fifteen days have passed since my arrival as an Erasmus+ ICM participant from Tashkent State University of Oriental Studies, yet these days have already felt like a journey through new dimensions of thought, culture, and humanity.



From the very first day, Leiden University made me feel included. The International Office organized an orientation week filled with meetings, city tours, and sessions about student life. What struck me most was how diverse the community was—students from Asia, Europe, Africa, and the Americas all gathered with the same curiosity and excitement. During enrolment, I was guided step-by-step by university coordinators who treated every question with patience and kindness. That small detail already said much about the culture of the university – respect, inclusivity, and a genuine desire to help every student succeed.

Leiden's educational philosophy is unlike what I was used to. Here, learning feels more like exploration. Professors encourage discussion rather than passive listening. They ask, "What do you think?"—and they mean it. It's a culture of dialogue and questioning, where no idea is too small to be explored. Every class I attend - whether it's a seminar on cultural identity or a lecture about global humanities - feels alive. Students speak openly, exchange opinions, and even disagree respectfully. This openness has already made me more confident in expressing my views and thinking critically about philosophical and cultural issues.

One of the most inspiring places in my daily routine is the Leiden University Library. It is not just a building; it feels like a living archive of human thought. Founded in the sixteenth century, the library houses millions of books, rare manuscripts, and historical collections from around the world. I still remember my first visit: as I walked through the quiet reading halls lined with old oak shelves and the faint smell of paper, I felt as if I had stepped into history itself. Among the treasures I discovered were original publications on Central Asian history and early ethnographic studies of the 19th century.

In just a few weeks, I have attended several conferences organized by Leiden University, Netherlands Interuniversity School for Islamic Studies, Foundation The Oriental Institute, and Dutch Research School for Medieval Studies. These events are open to all, including exchange students, and bring together researchers from all over the world. One of the conferences that impressed me most focused on "Annual Medieval Middle East Meeting". The discussions were not only academic but deeply human – about empathy, global citizenship, and how education can connect societies. Listening to scholars debate ideas that transcend borders reminded me why I joined this programme in the first place: to grow not only as a researcher but also as a person.




Before joining Erasmus+, I thought the programme was mainly about studying abroad. Now I see that its deeper purpose is to teach us how to live in a global community. Erasmus+ connects not just universities, but people - students, professors, and cultures. It teaches respect, empathy, and adaptability. It pushes you to step out of your comfort zone and see the world through other eyes. Through this

programme, I have learned to communicate better, to work with people from different backgrounds, and to appreciate diversity as a source of strength.

My supervisor, Dr. Elena Paskalyova, has played a vital role in this journey. She has not only guided my research but also encouraged me to engage in broader intellectual conversations. Her mentorship is not limited to academic advice – she constantly reminds me to observe, to listen, and to enjoy the process of discovery.

Leiden is a city that invites reflection. Whether you are watching people read by the canal, listening to the bells of St. Peter’s Church, or browsing through rare books in the university library, you realize that knowledge here is not confined to classrooms. It breathes through the city itself. The Erasmus+ ICM programme has allowed me to become part of that rhythm – to learn not only from professors but from the city, the people, and even the quiet moments in between.

As I continue my stay here, I look forward to more conferences, workshops, and cultural events that expand my perspective. I plan to visit other Leiden University campuses in The Hague and Amsterdam, and I hope to use every opportunity to learn from the people I meet. When I return to Uzbekistan, I want to bring back not only the academic knowledge but also the spirit of openness and cooperation that Erasmus+ represents. It has already changed how I see education, research, and the world itself.

For me, Erasmus+ ICM is not just a programme – it is a bridge. A bridge between countries, between ideas, and between who I was and who I am becoming. Leiden University, with its inspiring libraries, thoughtful professors, and welcoming community, has given me more than an education – it has given me a vision of what global learning truly means.

**In conclusion**, I wish to extend my sincere gratitude to all the organizers, the administration of Tashkent State University of Oriental Studies, the administration of Leiden University, and the personnel of the Erasmus+ programme for their invaluable support and guidance.

# ERASMUS+ICM STAFF MOBILITY FOR TEACHING

***Alisher Khaydarov*** – *Senior lecturer*
***Institution:*** *University of Economics and Pedagogy NTM*
***Host institution:*** *Polytechnic Institute of Tomar, Portugal*
***Tel:*** *+998994133523,* ***E-mail****: xaydarovalisher10@gmail.com*

*Erasmus+ KA171 ICM staff mobility scheme*
*15/09/2025-19/09/2025*

***Keywords:*** *Erasmus+, staff mobility, economics, finance, business management, accounting, international cooperation, scientific cooperation, taxation*

***Annotation:*** *The Erasmus+ programme is an initiative that provides students and academic staff with the opportunity to study and teach at higher education institutions across Europe. This article discusses my experience and impressions gained during a one-week teaching mobility under the Erasmus staff mobility for teaching programme, carried out at the Polytechnic Institute of Tomar in Portugal in September 2025. Furthermore, it highlights the positive aspects of the Erasmus teaching exchange scheme.*

## Kirish

Erasmus+ dasturi Yevropa Ittifoqining ta’lim, ilmiy tadqiqot va malaka oshirish sohalarida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan eng yirik tashabbuslaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Mazkur dastur nafaqat talabalar, balki professor-o‘qituvchilar uchun ham xalqaro tajriba orttirish, akademik salohiyatni oshirish va yangi pedagogik yondashuvlarni o‘rganish imkonini yaratadi. Shu jihatdan, staff mobility for teaching va student exchange dasturlari oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish, innovatsion ta’lim metodlarini amaliyotga joriy etish va ilmiy salohiyatni oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

2025-yil sentabr oyida Portugaliyaning Tomar politexnika institutiga Erasmus+ staff mobility for teaching dasturi doirasida xizmat safari amalga oshirildi. Ushbu safarda men oʻqituvchi sifatida ishtirok etish bilan birga, universitetimizdan student exchange dasturi asosida oʻqishga ketayotgan ikki nafar talabaga hamrohlik qildim. Bu esa menga nafaqat oʻqituvchilar uchun moʻljallangan almashinuv dasturining, balki talabalar uchun yaratilgan imkoniyatlarning ham bevosita afzallik va murakkabliklarini chuqur tushunish imkonini berdi.

Mazkur tajriba xalqaro akademik hamkorlikning real hayotiy misoli sifatida, oʻqituvchilar uchun ilmiy va pedagogik rivojlanish, talabalar uchun esa shaxsiy va kasbiy koʻnikmalarni boyitish imkonini berishini yaqqol koʻrsatdi. Shu bois Erasmus+ dasturi zamonaviy ta'lim jarayonida global integratsiya va bilimlar almashinuvining muhim omillaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

**Asosiy qism.** Iqtisodiyot va pedagogika universiteti tashkil etilganiga koʻp boʻlmagan boʻlsada, shu kunga qadar dunyoning 16 davlatidagi 40 ga yaqin oliy ta'lim muassasalari bilan xalqaro hamkorlik aloqalarini yoʻlga qoʻyishga ulgurdi. Ana shunday xalqaro hamkorlardan biri Portugaliyaning Tomar politexnika instituti (TPI) hisoblanadi. TPI va IPU oʻrtasidagi shartnomaga asosan universitetimizdan 1 nafar professor-oʻqituvchi ERASMUS+ loyihasining oʻqituvchilar almashinuvi dasturi boʻyicha hamda 2 nafar talaba esa talabalar almashinuvi dasturi boʻyicha Portugaliyada oʻqishi uchun kvota ajratilgandi. Universitetimizda oʻtkazilgan ichki tanlov natijalariga koʻra rahbariyat meni Portugaliyaga yuborishga qaror qildi. Shundan soʻng 2 nafar talabani saralab olish maqsadida oʻtkazilgan tanlovga komissiya a'zosi sifatida qabul qildim. Talabalar til bilish koʻnikmalari, mutaxxassislik fani, ma'naviy salohiyat hamda Yevropa va dunyo haqida bilim yoʻnalishlarida suhbatdan oʻtdilar. Suhbat natijalariga koʻra eng yuqori natija qayd etgan "Iqtisodiyot" kafedrasining 2 nafar talabasi tanlab olindi.

Universitetimiz rektori talabalar va meni bir vaqtda Portugaliyaga ketishimizga qaror qildi. Shundan soʻng, xalqaro boʻlim boshligʻi bilan birgalikda hujjatlarni tayyorlashga kirishdik. Oʻzbekistonda Portugaliya elchixonasi mavjud

emasligi tufayli, talabalar uzoq muddatli vizani Moskvadan olishlariga to‘g‘ri keldi va shu sababli ular dastlab Rossiyaga uchib ketishdi. Menda esa viza turi qisqa muddatli bo‘lgani uchun Toshkentdagi Fransiya elchixonasi orqali hujjatlarni topshirdim. Elchixonada suhbat kuni ham ajoyib o‘tdi. Elchixona xodimiga hujjatlarimni topshirdim va yonimda viza yig‘imi uchun 105 AQSH dollarini tayyorlab turgan vaqtimda, xodim mendan konsullik yig‘imi olinmasligini aytdi. To‘g‘risini aytganda, bir tomondan xursand bo‘lgan bo‘lsam, boshqa tomondan hayron qoldim. Keyin ularning tushuntirishi bo‘yicha Erasmus staff mobility uchun elchixonada konsullik yig‘imi olinmas ekan. Safar kunidan bir kun oldin elchixona tomonidan vizaga ijobiy javob berildi. Toshkentdan Lissabonga to‘g‘ridan-to‘g‘ri reys bo‘lmaganligi sababli, Turkiya orqali uchishimizga to‘g‘ri keldi va shu bilan “Qayerdasan Yevropa?” deb safarga yo‘l oldik.

Tomar shahri Lissabondan poyezda 2 soatlik masofada joylashgan ekan. Ertasi kuni Tomar politexnika institutiga tashrif buyurdik. 15-sentabr o‘quv yilining boshlanish sanasi ekan. Institutda talabalar orkestri tomonidan ajoyib musiqa va qo‘shiqlar yangrayotgandi. Institutda haqiqiy bayram shukuhi edi.




Dastlab, Erasmus welcoming meeting bo‘lib o‘tdi. Unda butun dunyodan TPI ga Erasmus orqali kelgan barcha talabalarni kutib olish, ular bilan tanishuv jarayoni bo‘lib o‘tdi. Har bir ishtirokchi o‘zi, vatani, yo‘nalishi haqida gapirib berdi. Menga navbat kelganda esa institut xalqaro aloqalar bo‘yicha prorektori janob Celio

qolganlarga ularning orasida professor ham borligini hamda mening talaba emasligimni aytib oʻtdi. Tadbir soʻnggida Tomar instituti rahbariyati va mas’ullariga oʻzbekona sovgʻa-salomlar taqdim etdik, birgalikda suratlarga tushdik.




Soʻngra prorektor janob Celio, xalqaro aloqalar boʻlimi boshligʻi Maria Catroga, Iqtisodiyot boʻyicha Erasmus koordinatori Fatima Pedro bilan birgalikda uchrashuv oʻtkazdik. Unda oʻzaro aloqalarni kuchaytirish, talabalar va professor-oʻqituvchilar sonini oshirish, kelgusida amalga oshirilishi mumkin boʻlgan loyihalar ustida gaplashdik.

Erasmus koordinatori Fatima Pedro menga dars jadvalimni taqdim etdi hamda xizmat safari davomida menga yaqindan koʻmak berdi. Xalqaro talabalarga biznes boshqaruvi, biznesda soliqlar mavzularida ma’ruza mashgʻulotlarini oʻtkazdim. Oʻylashim boʻyicha ma’ruzalar juda muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Buni talabalarning dars davomidagi faolligi, savol-javoblaridan bilish mumkin edi.



Safarning navbatdagi kunida Fatima Pedro meni institutning “Menejment maktabi” direktori janob Henrique Pinho bilan uchrashtirdi. Uchrashuv davomida







men janob Pinhoga Iqtisodiyot va pedagogika universiteti haqida taqdimot qildim. Shuningdek, universitetimizning yangi qurilayotgan binosining loyihasini ko‘rsatdim. Janob Pinhoda bu juda katta qiziqish uyg‘otdi hamda yaqin yillarda O‘zbekistonda, Iqtisodiyot va pedagogika universitetiga tashrif buyurish niyati borligini aytib o‘tdi.

Xizmat safarimning oxirgi kunida Biznes maktabi professor-o‘qituvchilari Pedro Marques hamda Renato Heitor Corre bilan uchrashuv o‘tkazdim. Uchrashuv davomida tajriba almashish maqsadida ularning dars o‘tish taktikalari, unda foydalanilayotgan o‘quv adabiyotlari bilan tanishdim. Professor-o‘qituvchilarning ilmiy ishlari bilan tanishdim hamda o‘zimni qiziqtirgan barcha savollarimga javob oldim.

**Xulosa.** Erasmus+ dasturi orqali Yevropaga chiqish, Yevropa universitetida xorijiy talabalarga dars o‘tish mening shaxsiy karyeramda nihoyatda muhim o‘rin tutdi. Bu safar shunchaki ma’ruza mashg‘ulotlarini o‘tish emas, balki Yevropa bilan tanishuv, turli xil madaniyat va millat vakillarini uchrashuv, yangi do‘stlar orttirish

bilan yodimda qoldi. Men bilan birga borgan talabalarga qo‘limdan kelganicha yordam va maslahatlarimni berib, Yevropaga uyushtirilgan xizmat safarimni yakunlab Toshkentga qaytib keldim. Erasmus dasturi orqali menga yaratib berilgan ushbu imkoniyat uchun Universitetimiz rektori Otabek Bozorovga hamda xalqaro aloqalar bo‘limi boshlig‘i Shohjahon Abduraximovga o‘z minnatdorchiligimni bildirib o‘taman.

# ERASMUS+ ICM XALQARO KREDIT MOBILLIK DASTURI DOIRASIDA EÖTVÖS LORÁND UNIVERSITETIDA O‘TKAZILGAN MA’RUZALAR TAJRIBASI VA UNING AHAMIYATI

***O‘g‘iljon Abduvaliyeva –*** *Katta o‘qituvchi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori*

***Institution:*** *Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

***Host institution:*** *Eötvös Loránd universiteti (ELTE)*

***Tel.:*** *+998946438182,* ***E-mail****: ugiljonabduvaliyeva92@gmail.com*

*ERASMUS+ Staff Mobility for teaching*
*13/10/2025-17/10/2025*

***Kalit so‘zlar:*** *Erasmus+ ICM, xalqaro hamkorlik, o‘qituvchilar almashinuvi, Eötvös Loránd Universiteti, Afg‘onistondagi til vaziyati, etnolingvistika, Pashtu tili, oliy ta’lim, metodik tajriba, akademik hamkorlik.*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Yevropa Ittifoqining Erasmus+ International Credit Mobility (ICM) dasturi doirasida Vengriyaning Eötvös Loránd Universitetida o‘tkazilgan ma’ruzalar tajribasi hamda uning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan. Xususan, 2025-yil 13–17-oktabr kunlari Budapesht shahriga amalga oshirgan tashrif davomida o‘qilgan ma’ruzalar mazmuni, jumladan, Afg‘onistondagi til vaziyati va etnolingvistik holati, Pashtu tilining fonetik tizimi hamda yozuv tizimining shakllanish jarayonlariga oid ilmiy tahlillar tahlil etilgan. Maqolada Erasmus+ dasturining xalqaro akademik hamkorlikni rivojlantirishdagi o‘rni, o‘qituvchilarning kasbiy va metodik salohiyatini oshirishdagi ahamiyati, shuningdek, tilshunoslik sohasida ilmiy aloqalarni mustahkamlashdagi roli yoritiladi. Shuningdek, o‘qituvchilar almashinuvi dasturining afzalliklari, natijalari va O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirishdagi hissasi tahlil qilinadi.*

## Kirish

Bugungi globallashuv davrida oliy ta’lim tizimining eng muhim jihatlaridan biri bu – xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirish va

oʻqituvchilar hamda talabalar uchun yangi imkoniyatlar yaratishdir. Shu ma’noda Yevropa Ittifoqining **Erasmus+ International Credit Mobility (ICM)** dasturi butun dunyo boʻylab akademik hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilayotgan muhim tashabbuslardan biridir. Mazkur dastur oʻqituvchilar, tadqiqotchilar va talabalar oʻrtasida ilmiy va madaniy tajriba almashinuvini ta’minlaydi, ta’lim sifatini oshirishga va xalqaro standartlarga yaqinlashishga yordam beradi.













Shu dastur doirasida, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti vakili sifatida, **2025-yil 13–17-oktabr kunlari Vengriya poytaxti Budapesht shahrida joylashgan Eötvös Loránd Universiteti (ELTE)** ga tashrif buyurish imkoniga ega boʻldim. Ushbu tashrif davomida 8 soatlik ma’ruzalar oʻqilib, Afgʻonistonning til vaziyati va etnolingvistik holati, Pashtu tili fonetikasi hamda yozuv tizimi boʻyicha ilmiy tahlillar taqdim etildi. Ma’ruzada Eronshunoslik, arabshunoslik, turkshkunoslik va hind tili kafedralari professor, oʻqituvchilari, doktorantlar hamda gumanitar fanlar fakulteti 2-4 kurs talabalari ishtirok etdilar.










Erasmus+ ICM dasturi asosida amalga oshirilgan bu tashrif ikki oliy ta’lim muassasasi o‘rtasidagi ilmiy hamkorlikni mustahkamlashga, yangi pedagogik yondashuvlarni tatbiq etishga va o‘zaro tajriba almashishga xizmat qildi.

Tashrif davomida quyidagi mavzularda ma’ruzalar o‘qildi:

1. **Afg‘onistondagi til vaziyati** – ushbu ma’ruzada mamlakatdagi ko‘p tillilik, rasmiy tillarning maqomi va ularning ijtimoiy-siyosiy roliga oid masalalar yoritildi.
2. **Afg‘onistondagi etnolingvistik vaziyat va til masalalari** – turli etnik guruhlar, ularning tillari va ijtimoiy identifikatsiya jarayonlari ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilindi.
3. **Pashtu tilining fonetik tizimi** – Pashtu tili fonetikasi, unli va undosh tovushlarning tizimi, ularning tarixiy shakllanishi haqida ilmiy ma’lumotlar berildi.
4. **Pashtu tili yozuv tizimining shakllanish jarayonlari** – arab yozuviga asoslangan Pashtu alifbosining tarixiy rivoji va o‘ziga xos xususiyatlari muhokama qilindi.

Ma’ruzalar davomida nafaqat lingvistik tahlillar, balki Afg‘oniston jamiyatida til va etnik masalalarning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati ham keng yoritildi. Talabalar hamda professor-o‘qituvchilar bilan jonli muloqot, savol-javoblar, muhokamalar orqali o‘zaro ilmiy fikr almashildi.



Mazkur dastur orqali o‘tkazilgan ma’ruzalar bir necha yo‘nalishlarda foydali natijalarga erishishga yordam berdi:

**Ilmiy tajriba almashinuvi** – Yevropa universitetlarida qo‘llanilayotgan o‘qitish uslublari, baholash mezonlari va ilmiy tahlil yondashuvlari bilan tanishish imkonini berdi.

**Tilshunoslik sohasida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish** – Etvös Loránd Universitetining gumanitar fanlar fakulteti bilan qo‘shma ilmiy loyihalar, konferensiyalar va qo‘shma nashrlar istiqbollari muhokama qilindi.

**Pedagogik mahoratni rivojlantirish** – Yevropa oliy ta'lim tizimida qo'llanilayotgan interaktiv o'qitish, seminar va muhokama asosida bilim berish metodlaridan ilhomlanildi.

**Talabalar motivatsiyasini oshirish** – chet el o'qituvchilari bilan uchrashuvlar ularning til o'rganishga, madaniy almashuvga va global fikrlashga bo'lgan qiziqishini kuchaytirdi.

**Xalqaro imidj va nufuzni oshirish** – bunday almashuv dasturlari O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining xalqaro maydondagi ishtirokini kengaytiradi.

Erasmus+ ICM dasturi nafaqat o'qituvchilar, balki butun ta'lim tizimi uchun katta imkoniyat yaratadi. Quyidagi afzalliklarni alohida ta'kidlash mumkin:

1. Metodik yangilanish – xorijiy tajriba asosida yangi dars uslublari, o'qitish texnologiyalari va baholash mezonlarini joriy etish imkoniyati yaratiladi.
2. Madaniyatlararo kompetensiya – xalqaro hamkorlik o'qituvchilarda madaniy farqlarni anglash, moslashish va tolerantlikni rivojlantiradi.
3. Akademik tarmoqni kengaytirish – turli mamlakatlardan professorlar bilan bevosita aloqalar o'rnatish kelgusida qo'shma ilmiy loyihalar uchun zamin yaratadi.
4. O'zaro ishonch va barqaror hamkorlik – Erasmus+ dasturi orqali yaratilgan akademik ko'priklar uzoq muddatli hamkorlik uchun asos bo'ladi.

**Xulosa.** Erasmus+ ICM dasturi bugungi kunda O'zbekiston oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarga moslashtirish va o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur dastur doirasidagi ishtirok nafaqat shaxsiy va kasbiy o'sish uchun, balki O'zbekiston oliy ta'lim tizimini xalqaro miqyosda rivojlantirish yo'lidagi muhim qadamlardan biridir. Eötvös Loránd Universitetida o'tkazilgan ma'ruzalar, ilmiy muloqotlar va madaniy almashinuvlar o'zaro do'stlik va ilmiy hamkorlik ruhini yanada mustahkamladi.

# ACADEMIC MOBILITY AND RESEARCH EXCHANGE AT THE TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ORIENTAL STUDIES

***Matteo Cecchetti*** **–** *PhD Candidate in History*
***Institution:*** *University of Pisa (Italy)*
***Host institution:*** *Tashkent State University of Oriental Studies, Uzbekistan*
*E-mail: [matteo.cecchetti@phd.unipi.it](mailto:matteo.cecchetti@phd.unipi.it)*

*ERASMUS+ Staff Mobility Scheme*
*20/10/2025 – 19/11/2025*

***Keywords****: National Scholarship Programme of the Slovak Republic, Slovak University of Technology (STU), academic mobility, international exchange, chemical technology, CO2 utilization, electrochemical synthesis, sustainable development.*

***Annotation****. This personal reflective article recounts the transformative five-month academic mobility experience of an Uzbek researcher in Chemical Technology under the National Scholarship Programme of the Slovak Republic at the Faculty of Chemical and Food Technology, Slovak University of Technology in Bratislava (STU). The author highlights the contrasts between the student-centered, research-oriented Slovak higher education system—characterized by academic freedom, flexible course selection, modern laboratory practices, and emphasis on critical thinking—and the more traditional lecture-based approach in Uzbekistan. Key scientific gains include advanced training in organic synthesis, electrochemical processes, and CO2 utilization for producing value-added chemicals, directly aligned with the author's bachelor research on sustainable synthesis of hydroxybenzoic acids. Beyond academics, the article emphasizes rich intercultural exchanges with students from diverse countries, participation in Slovak language and culture classes, and the celebration of Uzbek traditions such as Navruz. The experience reinforced the author's commitment to promoting innovative teaching methods, laboratory digitalization, research-based learning, and stronger bilateral academic partnerships upon return to Uzbekistan. Ultimately, the scholarship is presented as a catalyst for personal growth, professional development in green*

*chemistry, and a broader vision for modernizing science and education in Uzbekistan through international collaboration.*

## Introduction

My short academic stay at the Tashkent State University of Oriental Studies (TSUOS) has recently come to an end. I am currently a PhD candidate in History at the University of Pisa, in the final phase of my doctoral programme, during which I am completing a dissertation on early Arabic historiography and the memory-driven representations of the relationship between Arabs and the Sasanian Empire.

Before this mobility, I had no previous academic contact with TSUOS. The opportunity to apply for an Erasmus+ KA171 exchange was strongly encouraged by my supervisor, Prof. Chiara Barbati, who has longstanding research connections with scholars in Uzbekistan. The mobility took place between the second half of October and the first week of November 2025, and it proved to be a deeply enriching academic and personal experience.

## Academic Activities and Research Engagement

My main objective in choosing TSUOS was to establish research connections beyond the European academic environment, particularly with scholars whose interests intersect with my work on historiography, memory, and the early Islamic world. From the very beginning, this aim was facilitated by daily conversations with faculty members and by the continuous support of the International Relations Office. Upon my arrival, Dr. Kozim Ismoilov and Dr. Nilufar Imomova warmly welcomed me and ensured that I had all the information necessary for my stay. On my first official day at the university, Prof. Zuhriddin Alimov was appointed as my local tutor. Together, we developed a programme that included both independent research and participation in selected courses. I was able to attend lectures in:

- Historical Diplomatics (Prof. Mirsodiq Is’hogov);
- History of the Region of the Studied Country (Prof. Rahima Alimova);

- History of Uzbek Statehood (Prof. Isobek Khudoynazarov).

Prof. Khudoynazarov's guidance was particularly helpful: he offered a full tour of the university, facilitated my integration into the academic environment, and arranged a dedicated workspace equipped with a computer and bibliographic resources. Attending courses – an opportunity not always granted during visiting periods – proved especially valuable, allowing me to observe different teaching approaches and engage with students on a daily basis.

**Seminars and Academic Contributions**

During my mobility, I had the opportunity to present my research in two academic seminars organized at TSUOS.

The first, "Crafting History through Memory: Research Notes on Early Islamic Historiography," introduced the methodological and theoretical framework of my doctoral work and stimulated a dynamic discussion with faculty and students.

The second seminar, "The *Risālat Ibn Faḍlān*: Encountering a Restless World Through the Eyes of a 10th-Century Abbasid Envoy," offered an overview of an important Arabic source rich in geographical, ethnographic, and travel-related material. The session was met with strong engagement, and the Q&A generated particularly insightful exchanges.

These academic encounters allowed me to establish meaningful relationships with researchers and students, and they opened the path to several promising outcomes. I received invitations to contribute to TSUOS academic journals and discussed possibilities for developing joint research initiatives between TSUOS and the University of Pisa.

**Professional and Personal Impact**

On the professional level, this exchange significantly enriched my dissertation, broadened my comparative approach to historiography, and deepened my understanding of Central Asian academic perspectives. The accessibility of new

bibliographic sources, the opportunity to attend courses, and the constructive interaction with faculty all contributed to strengthening my research.

On a personal level, experiencing Uzbekistan – its culture, its academic community, and its remarkable heritage – was profoundly meaningful. The hospitality and openness I encountered made the experience both rewarding and memorable. I am especially grateful to Prof. Jasur Sulaymonov, who supported me throughout my stay, offering assistance both academically and personally.

**Conclusion**

My Erasmus+ KA171 mobility at the Tashkent State University of Oriental Studies has been an essential and transformative part of my doctoral journey. I am sincerely grateful to the faculty, students, and staff who welcomed me and supported my work, as well as to the International Relations Office for their constant assistance. I warmly encourage other students and researchers to take part in this programme, which offers exceptional opportunities for academic development, intercultural dialogue, and meaningful collaboration.




hat About Today
Personal connection: first Arabic text I ever translated.
Upcoming Italian edition with Prof. Marjani & Dr. Esposito.
The text: *Risālat Ibn Faḍlān* ('The Mission of Ibn Faḍlān').
*Risāla* = "to send" → means both 'letter' and 'diplomatic mission'.
Today's focus: Ibn Faḍlān's mission, historical context, and his narrative.
Il viaggio di Ibn Faḍlān presso il re bulgaro del Volga
A cura di
Cecchetti Matteo, Esposito Paola e Marjani Insam




Remarks
Ibn Faḍlān as both eyewitness and narrator.



# FROM UZBEKISTAN TO SLOVAKIA: MY JOURNEY OF ACADEMIC AND CULTURAL GROWTH THROUGH THE NATIONAL SCHOLARSHIP PROGRAMME

***Bekzod Eshkulov** – Ph.D. student*
***Institution:** Karshi State Technical University*
***Host institution:** Slovak University of Technology in Bratislava*
*National Scholarship Programme of the Slovak Republic (NSP)*
***E-mail:** bekzodeshqulov49@gmail.com*

## Introduction

In today's globalized world, international mobility programs play a crucial role in building a bridge between nations through education, research, and cultural exchange. As a young researcher in Chemical Technology, I have always believed that the most valuable knowledge is gained through collaboration and experience sharing across borders. When I was awarded a five-month National Scholarship of the Slovak Republic, I saw it as an opportunity not only to strengthen my scientific knowledge but also to contribute to the academic development of my home country, Uzbekistan.



This experience has become a turning point in my academic life. It has broadened my understanding of modern education systems, innovative laboratory practices, and international cooperation. In this article, I would like to share the knowledge and insights I gained during my stay in Slovakia and how they are shaping my vision for the future of science and education in Uzbekistan.

My study journey took place at the Faculty of Chemistry and Food Technology of the Slovak University of Technology (STU) that one of the leading

technical universities in Central Europe. From the first day, I noticed the well-structured learning process and the high level of academic freedom given to students. The Slovak education system encourages critical thinking, creativity, and independence, which differs greatly from the traditional lecture-based approach I was accustomed to.

At the beginning of the semester, each student could select courses according to their research interests. For instance, I chose advanced subjects related to organic synthesis, process simulation, and analytical chemistry. My schedule was later optimized thanks to the support of PhD. Ing. Miroslav Drtíl, the Dean of the Faculty, who kindly adapted the classes to fit my research activities. His understanding and student-centered attitude made a strong impression on me and reflected the humanistic values of Slovak academia.



The practical component of my studies was especially valuable. During laboratory sessions in organic synthesis, under the guidance of Prof. Branislav Ferko, I learned how to design, perform, and monitor chemical reactions using modern analytical equipment. These experiences strengthened my skills in laboratory safety, experiment documentation, and result interpretation all essential competencies for a professional chemical engineer.

Moreover, my supervisor shared techniques on how to optimize electrochemical processes for synthesizing organic compounds that directly related to my bachelor's research topic: *"Optimization of electrochemical synthesis of ortho- and para-hydroxybenzoic acids in the presence of CO2."* Such research has strong environmental relevance because it focuses on the conversion of CO2

emissions into valuable organic products, contributing to sustainable industrial development.



Studying abroad is not only about learning science but also about understanding people and cultures. Slovakia welcomed me with kindness and hospitality. Every week, I participated in Slovak language classes conducted by Prof. Zuzana Dudašová, where we learned both language and cultural traditions. These classes often included presentations about Slovak heritage, customs, and folk music, which helped me appreciate the country’s rich culture.

Outside the classroom, I met fellow students from various countries France, Italy, Spain, Greece, Kenya, Sudan, Ukraina, Turkey, Lithuania, and Canada, to name a few. We shared experiences, collaborated on assignments, and supported each other during academic challenges. These international friendships have become one of the most valuable outcomes of my mobility period, as they taught me cooperation, tolerance, and open-mindedness.

One of the most memorable moments was celebrating Navruz, the Uzbek New Year, with my international friends. I prepared our national dish, *Plov*, and introduced them to the traditions and values of Uzbekistan. This cultural exchange strengthened our bonds and allowed me to represent my country with pride. Many

of my friends later told me they wanted to visit Uzbekistan to explore Samarkand, Bukhara, and Khiva cities that hold centuries of scientific and cultural history.

My mobility experience made me realize the importance of innovation and research culture in higher education. In Slovakia, students are encouraged to express their ideas freely and participate in real scientific projects. The universities provide access to modern laboratories and digital tools such as simulation software, data analysis platforms, and online scientific databases. These elements play a key role in nurturing creativity and independent thinking.

Upon returning to Uzbekistan, I plan to promote such an open academic culture at my home university. I intend to share the methodologies I learned particularly in laboratory organization, digitalization of research data, and environmentally sustainable practices. Introducing interactive teaching methods and research-based learning could greatly enhance the quality of higher education in Uzbekistan.

Furthermore, I believe that stronger partnerships between Uzbek and European universities especially through Erasmus+ and National Scholarship programs will accelerate the exchange of ideas and expertise. These collaborations not only improve the qualifications of students and researchers but also contribute to the modernization of Uzbekistan's scientific

This scholarship experience has reshaped my personal and professional outlook. It helped me discover my passion for academic research and strengthened my desire to pursue a master's degree in Europe, possibly again in Slovakia. The knowledge I gained in electrochemical synthesis has opened a new direction for my future career in green chemistry and CO2 utilization technologies.

On a personal level, living abroad taught me independence, adaptability, and intercultural communication qualities essential for any young professional in today's globalized world. Slovakia became more than just a host country; it became a place where I grew both as a scientist and as a person.

The National Scholarship Programme has given me not only knowledge but also vision. It allowed me to experience a different education system, to interact with

diverse cultures, and to understand how global collaboration can drive local development. I am convinced that the experience I gained in Slovakia will help me contribute to the improvement of education, research, and sustainability in Uzbekistan.

To all future students considering Erasmus+ or the NSP program, I would say: *do not hesitate to step beyond your comfort zone*. Studying abroad is not merely about changing your location, it is about transforming your mindset and shaping your future. The world is full of opportunities waiting for those who are ready to learn, share, and grow.

**KREDIT MOBILLIK DASTURINING TALABALA HAYOTIDAGI O‘RNI HAMDA XALQARO TALABA BO‘LISHNING AFZALLIKLARI**

***Dilshoda Norboyeva*** – *Tadqiqotchi*
***Institution:*** *“Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers” National Research University (“TIIAME” NRU)*
***Host institution:*** *Paris Lodron University of Salzburg, Austria*
***Tel:*** *+998-94-6649094,* ***E-mail:*** *anoshiiim@gmail.com*,

*Erasmus+ ICM KA171*
*16/02/2025 - 05/07/2025*

***Keywords:*** *Erasmus+ International Credit Mobility, Paris Lodron University of Salzburg, GIS, academic growth, personal development, student mobility.*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqola Erasmus+ Xalqaro kredit mobilligi (ICM) dasturi doirasida Avstriyaning Salzburg shahridagi Paris Lodron universitetida o‘qish tajribasini yoritadi. Unda dasturga qo‘shilish jarayoni, boy madaniy va ilmiy muhit taFsilotlari, shuningdek, erishilgan shaxsiy rivojlanish yutuqlari haqida fikr yuritiladi. Muhim jihatlar qatorida SNAP va eCognition dasturlari kabi ilg‘or Geografik axborot tizimlari (GAT) vositalarini o‘rganish, AGIT: GI-2025 xalqaro konferensiyasida ishtirok etish va hamkorlikdagi loyihalarga hissa qo‘shish singari imkoniyatlar ham mavjud. Ushbu tajriba o‘zgarishlarga boy bo‘lib, bir vaqtning o‘zida qiyinchiliklar va imkoniyatlarni taqdim etganligi hamda shaxsiy dunyoqarashni kengaytirib, kelajak faoliyatiga tayyorgarlik bo‘lganligi haqida aytib o‘tilgan.*

## Kirish

Chet elda ta’lim olish ko‘plab talabalar orzusi hisoblanishi – hech kimga sir emas. Ushbu orzuni Erasmus+ Xalqaro kredit mobilligi dasturi orqali amalga oshirish mumkinligini esa barcha talabalar ham bilmaydi. Erasmus+ KA171 dasturi Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtiriladi va hamkor oliygohlar bilan tuzilgan hamkorlik shartnomalari asosida amalga oshiriladi. Dasturda ishtirok etish orqali

talabalar 1 semestr yoki 1 yil davomida xorijiy hamkor universitetda o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Nemis tilining kundalik hayotda ishlatiladigan asosiy iboralarini o‘rganishdan tortib, “shnitsel” va “apfelstrudel” kabi milliy taomlarni tatib ko‘rishgacha bo‘lgan barcha tajribalar mazmunli bo‘lishi kafolatlangan ushbu shahar ta’lim almashinuvi uchun eng ma’qul joy hisoblanadi. Salzburg boy tarixi va madaniyati, Motsart vatani va mashhur “The Sound of Music” filmi sahnalari suratga olingan shahar sifatida o‘qishga ilhom bag‘ishlaydigan maskandir.

Bundan tashqari, dunyoning nufuzli oliygohlari qatorida Paris Lodron universiteti (PLUS) ham o‘zining yuqori akademik talablari va innovatsion tadqiqotlari bilan mashhur. PLUS innovatsion va xalqaro yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga ega bo‘lib, ayniqsa Geoinformatika kafedrasi (Z_GIS) global miqyosda tan olingan ilmiy markaz hisoblanadi. Shuning uchun Z_GIS ilg‘or kurslar va zamonaviy texnik bazaga egaligi bilan universitetning qolgan kafedralaridan ajralib turadi. Universitet binolari Salzburgning go‘zal manzarali hududlarida joylashgani ham talabalar uchun iliq va qulay muhit yaratadi.

**PLUSning afzalliklari va ta’lim jarayonining o‘ziga xos jihatlari**

1. Tadqiqot asosidagi o‘qitish (Research-led teaching): PLUSda o‘qituvchilar o‘zlarining yangilikka asoslangan tadqiqot natijalarini talabalarga o‘rgatadilar. Bu uslub nafaqat nazariy bilim, balki amaliy kompetensiyalarni ham rivojlantiradi. Bu yondashuv talabalarga karyera va ilmiy yo‘nalishda chuqur poydevor beradi.

2. Tarmoqlararo va xalqaro ko‘lam: PLUSda 34 ta bakalavriat, 25 ta o‘qituvchilikka yo‘naltirilgan va 40 ta magistratura dasturlari mavjud bo‘lib, ba’zilari to‘liq ingliz tilida olib boriladi. PLUS Erasmus+ dasturi orqali 100 ga yaqin universitet bilan hamkorlik qiladi hamda 680 ta universitetlararo bitimlar mavjud. Bu talabalarga keng tarmoq va xalqaro tajriba imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, PLUS Yevropa universitetlar ittifoqiga (CIVIS) a’zo bo‘lib, ta’limda hamkorlik va innovatsiyalarni mustahkamlashga e’tibor qaratadi.

3. Innovatsion pedagogika va didaktik sifat ko‘rsatkichlari: PLUS O‘qitishda mukammallik mukofotida (Excellence in Teaching Award) talabalar bilan birgalikda ijodiy va samarali o‘qitish usullarini rivojlantirga qaratilgan kurslarni qo’llab-quvvatlaydi. Tanlovda quyidagi omillar asosiy mezon hisoblanadi:

- kompetensiyaga asoslangan ta’lim (learning outcomes);
- interfaol o‘qitish;
- raqamli o‘qitish vositalaridan foydalanish (Blackboard, MS Teams);
- talabalar bilan muntazam aloqada bo‘lish;
- turli talabalar guruhlarini hisobga olish.

Shu yondashuv orqali o‘qitish sifati doimiy ravishda rivojlanadi va ta’lim muhitidagi yangiliklar rag‘batlantiriladi.

4. Pedagogik kompetensiyani yuqori darajada rivojlantirish: PLUS o‘z pedagogik salohiyatini oshirish maqsadida o‘qituvchi-xodimlariga HSD+ (Hochschuldidaktik) kabi ichki kurslar, “Tag der Lehre” (O‘qituvchilik kuni) va sifat qo‘llanmasi kabi vositalarni taqdim etadi. Bunday tashabbuslar pedagogik usullarni takomillashtirish, kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’limni kuchaytirishga xizmat qiladi.

5. Moslashuvchanlik va tillararo o‘qish imkoniyatlari: PLUSda o‘quv dasturlarida ko‘plab ingliz tilidagi kurslar mavjudligi, xalqaro talabalar uchun ochiqlik hamda til markazidagi ko‘mak orqali talabalarga til va madaniyatlararo moslashuv uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Men “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universitetida (“TIQXMMI” MTU) geoinformatika ixtisosligida tayanch doktoranturada tahsil olayotganim sababli, Paris Lodron universitetidagi bir semestrlik o’qish men uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. GAT va masofadan zondlash bo‘yicha chuqurroq bilim olish bilan birga, internet web sahifalari yordamida ma’lumot yig‘ish va ilg‘or vositalar - SNAP hamda eCognition dasturlarida ma’lumotlarni qayta ishlash ko‘nikmalarini egalladim. Shuningdek, ArcGIS va Google Earth Engine kabi dasturlardan

foydalangan holda yangi loyihalar yaratdim. 1-jadvalda “TIQXMMI” MTU va PLUS oʻrtasidagi asosiy farqlar taqqoslandi.

**1-jadval.** PLUS va “TIQXMMI” MTUda oʻqitish tizimi

| **Yoʻnalish** | **PLUS** | **“TIQXMMI” MTU** |
|---|---|---|
| **Laboratoriyalar** | Geoinformatika kafedrasida iDEAS:lab – inquiry-based learning va Digital Earth texnologiyalari uchun interaktiv laboratoriya; Z_GIS tarkibida EO/RS, OBIA, mobilitet va boshqa yoʻnalishlarda ilmiy guruhlar mavjud. | Suv xoʻjaligi, melioratsiya, agrotexnika va yer boshqaruvi yoʻnalishlari boʻyicha laboratoriyalar; ilmiy-tajriba xoʻjaligi negizida SciTech Park tashabbusi mavjud. |
| **Kutubxona** | Universitetsbibliothek Salzburg: UBsearch onlayn qidiruv, ePLUS raqamli kolleksiyalar, Uniparkdagi tillar markazi fondlaridan foydalanish mumkin | TIIAME Library: DiLib – elektron kutubxona platformasi; universitet jurnallari “‘Irrigation and Land Reclamation”, “Sustainable Agriculture” etc.) mavjud. |
| **Oʻqitish tizimi** | PLUSonline (CAMPUSonline) tizimi – kurslar/imtihonlar; Blackboard LMS (Flexible Learning markazi orqali) kabi qulayliklarga ega. | Kredit-modul (ECTSga mos) tizimiga bosqichma-bosqich oʻtgan; Moodle LMS va HEMIS integratsiyasi yaratilgan. |

## PLUSdagi ta’lim va tadqiqot faoliyati

2025-yil 16-fevraldan 5-iyulgacha dunyoning nufuzli universitetlari reytingida 601-o’rinda turuvchi Avstriyaning Salzburg shahridagi Paris Lodron universitetida bir semestr davomida oʻqish imkoniyatini Erasmus+ Xalqaro Kredit Mobilligi dasturi orqali qoʻlga kiritdim. Bu davr sohaga oid bilimlarimni boyitdi, dunyoning turli nuqtalaridan kelgan talabalarning madaniyatlari bilan tanishtirdi va shaxsiy rivojlanishimga katta hissa qoʻshdi. Safar davomida turli qiyinchiliklar, yangi sarguzashtlar hamda unutilmas onlarni boshdan kechirish insonda yangi muhitga moslashuvchanlik hissiyotini shakllantiradi. Erasmus+ dasturiga ariza



topshirishning sababi yangi akademik muhitni sinab ko‘rish, boshqa madaniyatga sho‘ng‘ish va o‘zini shaxsiy hamda kasbiy rivojlanishda sinovdan o‘tkazish, desam mubolag‘a bo‘lmaydi.

2025-yil 17-28-fevral kunlari o’tkazilgan Orientation Week dasturi PLUSda o‘qishni boshlagan barcha xorijlik talabalarga yangi sharoitga moslashishda yordam berdi. Universitet bo‘ylab turlar, Avstriya madaniyati bo‘yicha seminarlar va akademik vositalar bilan ishlash bo‘yicha mashg‘ulotlarda qatnashdik. Bu dasturlar orqali o‘qish muhiti, tizimlardan foydalanish, talabalar tashkilotlari va bo‘sh vaqtlarimizni mazmunli o‘tkazish uchun ijtimoiy loyihalar bilan tanishib chiqdik. Dastlabki tanishuv haftasi mobaynida dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan talabalar bilan do‘stona aloqalar o‘rnatdik.

**1-rasm.** Universitet kutubxonasi

PLUSning Xalqaro bo’limi tomonidan tashkil etilgan “International Cafe” tadbirida men o‘z yurtimning mashhur milliy taomlari – qovurilgan chuchvara va sho‘rvani tayyorlab, uni boshqa talabalar bilan bo‘lishdim. Bu tajriba orqali men o‘zbek madaniyatini tanishtirish, shuningdek, boshqa xalqlarning urf-odatlari bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ldim. O‘zbek milliy madaniyatiga qiziqish sezilarli darajada yuqori ekanligi va milliy taomlarimizning o‘zgacha ta’mi nafaqat xorijlik talabalarning, balki universitet xodimlarining ham e’tiborini tortdi.



**2-rasm.** “International Cafe” tadbiri




Shuningdek, 2025-yil 2–3-iyul kunlari an'anaviy tarzda o'tkazilgan AGIT: GI-2025 xalqaro konferensiyasida ishtirok etdim. Mazkur nufuzli tadbirda yer tuzish, geodeziya, geoinformatika va kartografiya sohalarida faoliyat olib borayotgan ko'plab yetuk olim va tadqiqotchilar hamda tashkilotlar bilan yaqindan tanishish, ilmiy hamkorlikni yo'lga qo'yish, kelgusida qo'shma loyihalar va hammualliflikda maqolalar tayyorlash bo'yicha muhim kelishuvlarga erishildi.

**3-rasm.** AGIT: GI-2025 xalqaro konferensiyasi

### Tadqiqot natijalari

Dastur davomida tadqiqotchi sifatida men:

- mutaxassislik fanlarini ingliz tilida o'zlashtirdim;
- xalqaro muhitda akademik tajriba orttirdim;
- Yevropa oliy ta'lim tizimi bilan yaqindan tanishdim;
- turli mamlakatlardan kelgan talabalar bilan hamkorlikda loyihalar bajardim;
- shaxsiy va professional rivojlanish uchun muhim ko'nikmalarni egalladim.




**4-rasm.** Z_GIS kafedrasi mudiri Tomas Blaschke

Ushbu muvaffaqiyatli ishtirok Erasmus+ dasturining yoshlar uchun ochayotgan imkoniyatlarini yana bir bor namoyon etadi. Bu dastur talabalarni qulay hududdan tashqariga chiqishga undaydi. Yangi shaharda yashash, boshqa ta'lim tizimiga moslashish va notanish muhitda yangi aloqalar oʻrnatish sabr-toqat va moslashuvchanlikni talab qiladi. Bu tajribalar nafaqat ishonchni oshiradi, balki kelajakdagi kasbiy va shaxsiy hayot uchun zarur koʻnikmalarni ham beradi.

**Xulosa.** Mazkur maqolada Erasmus+ ICM dasturining talabalarga taqdim etadigan imkoniyatlaridan kichik bir qismi yoritildi. Dastur nafaqat ta'lim va ilmiy izlanishlar, balki xalqaro hamkorlik va shaxsiy rivojlanish uchun ham muhim maydon hisoblanadi. Talabalarning ushbu dasturda qatnashishi va oʻzlarining oʻzgarishlarga boy sayohatlarini amalga oshirishlariga imkon yaratib berayotgan dastur tashkilotchilari, ya'ni professor-oʻqituvchilar, koordinatorlar, jumladan, Dr. Ilxom Abduraxmanov, Prof. Josef Shtrobl, Dr. Aynura Nazarkulova hamda xalqaro boʻlim hodimlariga minnatdorchilik bildirgan holda yangi loyihalar kutib qolamiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


1. Paris Lodron University of Salzburg. (n.d.). Department of Geoinformatics – Z_GIS. University of Salzburg. Retrieved from https://www.plus.ac.at/geoinformatics/
2. CIVIS European University Alliance. (n.d.). Paris Lodron University of Salzburg (PLUS). Retrieved from https://civis.eu/en/discover-civis/the-civis-alliance/paris-lodron-university-of-salzburg
3. MeinBezirk Salzburg. (2024). Preise an herausragende Wissenschaftler übergeben. Retrieved from https://www.meinbezirk.at/salzburg/c-wirtschaft/preise-an-herausragende-wissenschaftler-uebergeben_a5750512
4. UNIGIS International. (n.d.). GIS distance learning programs. Retrieved from https://unigis.net/
5. European Commission. (2024). Erasmus+ programme guide. Publications Office of the European Union. Retrieved from https://erasmus-plus.ec.europa.eu/document/erasmus-programme-guide-2024
6. Paris Lodron University of Salzburg. (n.d.). International Relations Office – Erasmus+ Mobility. Retrieved from https://www.plus.ac.at/international-relations/erasmus/
7. Study in Austria. (n.d.). Erasmus+ grants and scholarships. Retrieved from https://studyinaustria.at/en/plan-your-studies/grants-and-scholarships/erasmus/

# ERASMUS+ XALQARO KREDIT MOBILLIK DASTURI DOIRASIDA VENGRIYADA O‘TKAZILGAN ILMIY STAJIROVKA TAJRIBASI

***Shohjahon Hamidullayev*, *Ziorjon Abdurahmonov*, *Azizbek Orazbayev***
***Institution:*** *“Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers” National Research University (“TIIAME” NRU)*
***Host Institution:*** *Óbuda University, Alba Regia Technical Faculty (Hungary, Székesfehérvár)*
***Tel:*** *+998 90 333 34 05*, ***E-mail:*** *shohjahon1208@tiiame.uz*

*Erasmus+ ICM KA171*
*30/03/2024 - 25/06/2024*

***Kalit so‘zlar:*** *Erasmus+, Xalqaro kredit mobillik, Obuda universiteti, geoinformatika, masofadan zondlash, ilmiy stajirovka, xalqaro hamkorlik, madaniyatlararo tajriba*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada Erasmus+ Xalqaro kredit mobillik dasturi doirasida Vengriyaning Obuda universitetida amalga oshirilgan ilmiy stajirovka jarayoni keng yoritilgan. Safar davomida geoinformatika va masofadan zondlash sohasida o‘tkazilgan seminar-treninglar, ilmiy taqdimotlar, professor-o‘qituvchilar bilan uchrashuvlar, madaniy tadbirlar va ilmiy hamkorlik bo‘yicha olingan tajribalar tahlil qilingan. Bundan tashqari, stajirovka davrida erishilgan natijalar, xalqaro ta’lim muhiti bilan tanishuv, ilmiy dasturlar bilan ishlash ko‘nikmalari, shuningdek, madaniyatlararo muloqotning shaxsiy va professional rivojlanishga qo‘shgan hissasi ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu tajribalar nafaqat ilmiy izlanishlar samaradorligini oshirdi, balki xalqaro hamkorlikning amaliy afzalliklarini ham namoyon etdi.*

## Kirish

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida so‘nggi yillarda xalqaro hamkorlikni kengaytirish, xorijiy tajribalarni o‘rganish va kadrlar malakasini oshirish ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Ta’lim tizimining zamonaviy talablarga javob berishi, global miqyosda raqobatbardosh bo‘lishi hamda yosh tadqiqotchilarning

ilmiy salohiyatini kengaytirish uchun Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi katta imkoniyatlar yaratmoqda. Shu jumladan, Xalqaro kredit mobillik (ICM) yo‘nalishi orqali talaba va tadqiqotchilar turli yetakchi oliy ta’lim muassasalarida qisqa muddatli stajirovka o‘tab, o‘z ilmiy izlanishlarini yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatiga ega bo‘lishmoqda.

Erasmus+ Xalqaro kredit mobillik loyihasi doirasida “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining Geoinformatika ixtisosligi tayanch doktorantlari Zoirjon Abdurahmonov, Azizbek Orazbayev va Shohjahon Hamidullayev ilmiy stajirovkada ishtirok etdilar. Ushbu loyihaga “TIQXMMI” MTU tomonidan Dr. Ilhom Abdurahmanov va Obuda universiteti tomonidan Dr. Udvardy Peter kordinatorlik qildi. Shuningdek, Obuda universiteti tomonidan ta’lim jarayoniga va ilmiy ishlarni tashkil etishga mas’ul bo‘lgan Dr. Verónė Dr. Wojtaszek Małgorzata (ilmiy rahbar), Balázsik Valéria (katta o‘qituvchi), Dr. habil Pódor Andrea (institut direktori) hamda Veres Richárd (kasaba uyushmasi raisi) faol qatnashib, loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga bevosita hissa qo‘shdilar(1-rasm).




**1-rasm. Loyiha ishtirokchilari**

Ushbu maqolada mualliflarning Vengriyaning Obuda universitetida o‘tkazgan uch oylik stajirovka tajribasi, unda amalga oshirilgan ilmiy faoliyat, o‘tkazilgan seminar-treninglar, taqdimotlar hamda madaniy tadbirlardagi ishtiroki batafsil tahlil qilingan. Bu kabi dasturlar nafaqat ta’lim jarayonining sifatini oshiradi, balki mamlakatimizda ilmiy hamkorlikni rivojlantirish va yangi loyihalarni yo‘lga qo‘yish uchun mustahkam asos yaratadi.

**Ilmiy hamkorlik va uchrashuvlar**

Safar davomida Obuda universiteti Geoinformatika markazi rahbari professor Andrea Podor hamda bizning bevosita ilmiy maslahatchimiz Dr. Malgorzata bilan bir nechta uchrashuvlar o‘tkazildi. Ushbu uchrashuvlar jarayonida ilmiy dissertatsiya mavzularimiz atroflicha muhokama qilindi, o‘tiladigan fan dasturlari belgilab olindi hamda ilmiy izlanishlarning metodologik asoslari bo‘yicha maslahatlar berildi. Professor Podorning ilmiy rahbarlik tajribasi, universitetda yo‘lga qo‘yilgan ilg‘or ilmiy loyihalar va ularni amalga oshirish mexanizmlari biz uchun katta amaliy ahamiyat kasb etdi (2-rasm).



**2-rasm. Ilmiy hamkorlik va uchrashuvlar**

Dr. Malgorzata tomonidan taklif etilgan ilmiy yondashuvlar, masalan, turli dasturlar va zamonaviy tahlil usullaridan foydalanish bo‘yicha bergan ko‘rsatmalari tadqiqotlarimizda yangi imkoniyatlarni ochib berdi. Shu orqali biz ilmiy ishlarimizni xalqaro talablarga moslashtirish, yangi ilmiy natijalarga erishish va kelgusida xalqaro jurnallarda maqolalar chop etish uchun zarur bo‘lgan tajriba va ko‘nikmalarga ega bo‘ldik.

## Seminar va treninglar

Erasmus+ OE-BIP Blended Intensive Programme dasturi doirasida o‘tkazilgan seminar va treninglarda faol ishtirok etdik. Treninglar davomida Portugaliya, Slovakiya, Vengriya va Ruminiyadan kelgan mutaxassislar tomonidan “Yashil shahar tamoyili”, “Barqaror rivojlanishda dronlardan foydalanish imkoniyatlari”, “Data Science va sun’iy intellektning atrof-muhit monitoringida qo‘llanilishi” kabi mavzularda ma’ruzalar tingladik. Ushbu ma’ruzalar orqali biz nafaqat zamonaviy ekologik muammolarni yechishda ilg‘or texnologiyalar qo‘llanilayotganligini ko‘rdik, balki ushbu bilimlarni o‘z ilmiy tadqiqotlarimizda qo‘llash imkoniyatlarini ham aniqladik. Seminar-treninglarda olingan bilimlar bizning geoinformatika sohasidagi amaliy tajribalarimizni kengaytirdi, xalqaro mutaxassislar bilan fikr almashish imkonini berdi hamda ilmiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish uchun muhim zamin yaratdi (3-rasm).



**3-rasm. Seminar va treninglar**

## Ilmiy faoliyat va natijalar

Ilmiy safarimizning eng muhim qismi ilmiy faoliyat va erishilgan natijalar bilan bog‘liq bo‘ldi. Obuda universiteti Geoinformatika institutida o‘z ilmiy ishimizning dastlabki natijalari yuzasidan taqdimot o‘tkazdik. Taqdimot davomida masofadan zondlash texnologiyalarining qishloq xo‘jaligi, sel xavfini baholashdagi o‘rni, qo‘llanilgan metodologiyalar hamda dastlabki natijalar haqida t**o‘**xtalib **o‘**tdik. Tinglovchilar tomonidan bildirilgan savol va takliflar bizning ilmiy qarashlarimizni yanada chuqurlashtirdi. Bundan tashqari, Dr. Wojtaszek Malgorzata rahbarligida eCognition va IDRISI dasturlarida NDVI ko‘rsatkichlari asosida modullar yaratish, kichik hududlarda turli tahlillarni o‘tkazish, natijalarni statistik usullar yordamida baholashni o‘rgandik. Bu dasturlar yordamida olingan natijalar keyingi ilmiy ishlarimiz uchun ishonchli metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu tariqa, safar davomida nafaqat nazariy bilimlarimizni boyitdik, balki amaliy ko‘nikmalarimizni ham sezilarli darajada oshirdik (4-rasm).









**4-rasm. Ilmiy faoliyatdan lavhalar**

## Madaniy tadbirlar va ekskursiyalar

Stajirovka davrida ilmiy faoliyat bilan bir qatorda madaniy tadbirlar va turli ekskursiyalarda ham ishtirok etdik. Budapesht shahridagi diqqatga sazovor joylarga sayohat davomida Vengriya parlamenti binosi, Qahramonlar xiyoboni va boshqa tarixiy obidalar bilan yaqindan tanishdik. Shuningdek, Székesfehérvar Sosto milliy bog‘iga tashrif buyurib, noyob qushlar va o‘simliklar turlari, ekologik muhofaza choralari haqida qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘ldik. Velosiped yordamida Velens ko‘liga safar esa bizning jismoniy faolligimizni oshirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish hamda Vengriya tabiati va iqlimining o‘ziga xos jihatlari bilan tanishish imkonini berdi. Opera konsertida ishtirok etish esa bizni Vengriya san’atining nafislik va yuksak badiiy an’analari bilan tanishtirdi. Milliy bayram tadbirlarida qatnashish esa xalqning urf-odatlari, an’analari va ijtimoiy qadriyatlarini yaqindan o‘rganish uchun ajoyib imkoniyat yaratdi(5-rasm).














**5-rasm. Madaniy tadbirlar va ekskursiyalardan lavhalar**

**Obuda universiteti an’analari bilan tanishuv**

Obuda universiteti professor-o‘qituvchilari taklifi asosida mazkur universitet bitiruvchi talabalarining an’anaviy bitiruv marosimida ham ishtirok etdik. Ushbu tadbir o‘zining ko‘p yillik an’analari, qiziqarli o‘tishi va samimiy muhitda o‘tkazilgani bilan alohida taassurot qoldirdi. Marosimda universitet rahbariyati hamda shahar meri ham qatnashib, bitiruvchilarga o‘z tabriklarini izhor etdilar. Shu tariqa biz Vengriyaning ta’limiy va madaniy hayoti bilan yanada yaqinroq tanishish imkoniga ega bo‘ldik (6-rasm).




**6-rasm. Vengriya va universitet ananalari tanishuv**

**Xulosa.** Umuman olganda, Erasmus+ Xalqaro kredit mobillik dasturi bizning ilmiy va shaxsiy rivojlanishimizda beqiyos rol o‘ynadi. Vengriyadagi stajirovka davomida nafaqat yangi ilmiy bilimlar va ko‘nikmalarga ega bo‘ldik, balki xalqaro akademik muhitda ishlash tajribasini ham orttirdik. Madaniy tadbirlar orqali boshqa xalqlarning tarixi, urf-odatlari va qadriyatlari bilan tanishish bizning

dunyoqarashimizni kengaytirdi. Ilmiy taqdimotlar va seminarlar esa kelgusidagi ilmiy faoliyatimizni yanada samarali qilish uchun katta turtki boʻldi. Ushbu safar davomida olingan tajriba va taassurotlar ilmiy faoliyatimizni rivojlantirish, yangi xalqaro hamkorliklarni yoʻlga qoʻyish hamda Oʻzbekiston taʼlim tizimida ilgʻor yondashuvlarni tatbiq etishda mustahkam asos boʻlib xizmat qiladi. Shu bois, Erasmus+ dasturining biz kabi yosh olimlar uchun yaratgan imkoniyatlari kelgusida ham yurtimiz taʼlim va ilm-fan sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


1. Erasmus+ Programme Guide 2024 European Commission
2. Óbuda University official website: https://uni-Óbuda.hu
3. European Commission Erasmus+ official website: https://erasmus-plus.ec.europa.eu
4. Andrea Podor, Erasmus+ training reports, Óbuda University, 2024
5. Wojtaszek M., Applications of Remote Sensing in Environmental Monitoring, Training materials, 2024

# ERASMUS+ ICM XALQARO KREDIT MOBILLIK DASTURI DOIRASIDA PIZA UNIVERSITETIDA O‘TKAZILGAN STAJIROVKA TAJRIBASI VA UNING AHAMIYATI

***Jasur Sulaymonov*** *– Dotsent, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori*
***Institution:*** *Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*
***Host institution:*** *Piza universiteti (UniPi), Italy*
***Tel.:*** *+998998990964, e-mail: nihatchetin@gmail.com*

*ERASMUS+ Staff mobilty for training*
*Erasmus+ ICM KA171*
*13/10/2025-17/10/2025*

***Kalit so‘zlar:*** *Erasmus+, Xalqaro kredit mobillik, Piza universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Falsafa, Sharq falsafasi va manbashunosligi, tarixiy yo’nalishlar, ilmiy almashinuv, xalqaro hamkorlik, madaniyatlararo tajriba.*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada Erasmus+ Xalqaro kredit mobillik dasturi doirasida Italiyaning Piza universitetida amalga oshirilgan ilmiy almashinuv dasturi jarayoni keng yoritilgan. Safar davomida Piza universiteti xalqaro aloqalar bo’limi Erasmus+ hamkorligi doirasidagi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va loyihalar, Erasmus+ loyihasi yo’nalishlari asosida o‘tkazilgan seminar-treninglar, ilmiy taqdimotlar, professor-o‘qituvchilar bilan uchrashuvlar, madaniy tadbirlar va ilmiy hamkorlik bo‘yicha olingan tajribalar tahlil qilingan. Bundan tashqari, ilmiy almashinuv dasturi davrida erishilgan natijalar, xalqaro ta’lim muhiti bilan tanishuv, ilmiy dasturlar bilan ishlash ko‘nikmalari, shuningdek, madaniyatlararo muloqotning shaxsiy va professional rivojlanishga qo‘shgan hissasi ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu tajribalar nafaqat ilmiy izlanishlar samaradorligini oshirdi, balki xalqaro hamkorlikning amaliy afzalliklarini ham namoyon etdi.*

## Kirish

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimida xalqaro hamkorlikni kengaytirish hamda mustahlamlash, xorijiy tajribalarni o‘rganish va kadrlar

malakasini oshirish ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Oliy ta’lim tizimining xalqaro zamonaviy talablarga moslashtirish, xalqarolashtirish, jahonda raqobatbardosh bo‘lishi hamda yosh tadqiqotchilarning ilmiy salohiyatini kengaytirish uchun Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi katta imkoniyatlar yaratmoqda. Shu jumladan, Xalqaro kredit mobillik (ICM) yo‘nalishi orqali talaba va tadqiqotchilar turli yetakchi oliy ta’lim muassasalarida qisqa muddatli stajirovka o‘tab, o‘z ilmiy izlanishlarini yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatiga ega bo‘lishmoqda.

Erasmus+ Xalqaro kredit mobillik loyihasi doirasida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq falsafasi va germenevtika kafedrasi mudiri PhD, dotsent Jasur Baxtuyorovich Sulaymonov ilmiy almashinuvda ishtirok etdi. Ushbu loyihaga Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tomonidan Nilufar Imomova va Piza universiteti tomonidan Dr. Sabina Manci kordinatorlik qildi. Shuningdek, Piza universiteti tomonidan ta’lim jarayoniga va ilmiy ishlarni tashkil etishga mas’ul bo‘lgan Francesca Bianchini, Xalqaro mobillik bo'limidan Samantha Ascani, Matilde Galassi va Davide Tizian, Xalqaro dasturlar bo'limidan Tommaso Salamone, Sivilzatsiya va bilish formalari bo’limi professorlari Chiara Barbati, Fabio Gvidetti, Renata Pepichellilar faol qatnashib, loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga bevosita hissa qo‘shdilar(1-rasm).



**1-rasm.**

Ushbu maqolada Jasur Sulaymonovning Italiyaning Piza universitetida 13/10/2025-17/10/2025 kunlarida o‘tkazgan almashinuv dasturi tajribasi, unda amalga oshirilgan ilmiy faoliyat, o‘tkazilgan seminar-treninglar, taqdimotlar hamda madaniy tadbirlardagi ishtiroki batafsil tahlil qilingan. Bu kabi dasturlar nafaqat ta’lim jarayonining sifatini oshiradi, balki O’zbekiston Respublikasi universitetlari va Yevropa Ittifoqi universitetlari o’rtasida ilmiy hamkorlikni rivojlantirish va yangi loyihalarni yo‘lga qo‘yish uchun mustahkam asos yaratishi mumkin.

**Ilmiy hamkorlik va uchrashuvlar**

Safar davomida Piza universiteti rektoratiga borib ro’yxatdan o’tildi va Erasmus+ Xalqaro kredit mobilligining professor-o’qituvchilar almashinuvi dasturi ochilish marosimida ishtirok etildi. Ochilish marosimidan so’ng Piza universiteti xalqaro aloqalar bo’limi Erasmus+ hamkorligi doirasidagi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va loyihalar haqida ma’sullar tomonidan taqdimotlar amalga oshirildi. Piza universiteti xalqaro aloqalar bo’limi xodimi Adio Terranova “The University of Pisa at a Glance” mavzusida slayd taqdimotni namoyish qildi. Adio Terranova taqdimotida Piza universitetining o’tmishi, buguni va kelajagi haqida ma’lumotlar berib o’tdi. Piza universiteti Xalqaro targ'ibot bo'limidan Laura Nelli, Xalqaro hamkorlik bo'limidan Francesca Bianchini, Xalqaro mobillik bo'limidan Samantha Ascani, Matilde Galassi va Davide Tizian, Xalqaro dasturlar bo'limidan Tommaso Salamone, Unipi Elchilar: talabalarga xizmat ko'rsatish bo’limidan Meghna Singhlarning ma’ruzalari tinglandi.

Ushbu uchrashuvlar jarayonida Erasmus+ loyihasi yo’nalishlari atroflicha muhokama qilindi, bajariladigan ishlar belgilab olindi hamda ilmiy hamkorlikning metodologik asoslari bo‘yicha maslahatlar berildi. Piza universiteti Xalqaro targ'ibot bo'limidan Laura Nelli, Xalqaro hamkorlik bo'limidan Francesca Bianchini, Xalqaro mobillik bo'limidan Samantha Ascani, Matilde Galassi va Davide Tizian, Xalqaro dasturlar bo'limidan Tommaso Salamone, Unipi Elchilar: talabalarga xizmat ko'rsatish bo’limidan Meghna Singhlarning ma’ruzalari biz uchun katta amaliy ahamiyat kasb etdi (2-rasm).



**2-rasm. Ilmiy hamkorlik va uchrashuvlar**

## Seminar va treninglar

Erasmus+ Staff Week 2025 doirasida ishtirok etayotgan hamkor universitet vakillari o'z universitetlari haqida taqdimot qilishlari boshlandi. Dastur rejasiga ko'ra Palazzo Mateucci saroyida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti haqida, universitetning xalqarolashuvi haqida taqdimot qilindi. Taqdimotda Erasmus+ Staff Week 2025 doirasida ishtirok etayotgan hamkor universitetlardan Peru Ignatiy Loyola universiteti, Marokashning Cadi Ayyad universiteti hamda Jazoirning Djelfa universiteti, Qarshi davlat universiteti hamda Geologiya universiteti vakillari hamda Piza universiteti kafedralari vakillari ishtirok etishdi.

2025 yil 15 oktabrida Palazzo Mateuccida Elena Favillining "Circle U. Alliance", Alessandro Balestrinoning "Open Campus", Francesco Marcellonining "Artificial Intelligence", Lara Tavoschining "Global Health", Alessandra Meonining "InCU.bator CircleU", Stefano Galatoloning "Climate" mavzularidagi ma'ruzalari tinglandi. Seminar-treninglarda olingan bilimlar ijtimoiy gumanitar fanlar, xususan, falsafa sohasidagi amaliy tajribalarimizni kengaytirdi, xalqaro mutaxassislar bilan fikr almashish imkonini berdi hamda ilmiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish uchun muhim zamin yaratdi (3-rasm).




**3-rasm. Seminar va treninglar**

## Ilmiy faoliyat va natijalar

Almashinuv dasturi davomida  Filologiya, Sivilizatsiya va bilish shakllari, Siyosatshunoslik va yurisprudensiya bo'limlariga tashri buyurildi.

Filologiya bo'limi professori Marko Sabatini bilan Piza universiteti rus tilini o'rganuvchi talabalarining TDSHUda rus tili o'quv kurslarida ishtirok etishi masalasi muhokama qilindi. Professor Sabatini bilan aloqa o'rnatildi.

Sivilzatsiya va bilish formalari bo'limi professorlari Chiara Barbati, Fabio Gvidetti, Renata Pepichellilar bilan kafedralar o'rtasidagi hamkorlikni o'rnatish va aloqalarni rivojlantirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Sivilzatsiya va bilish formalari bo'limi professorlari Chiara Barbati, Fabio Gvidetti hamrohligida Piza universiteti Falsafa va tarix kutubxonasiga tashrif buyurildi hamda kutubxona fondidagi falsafaga doir adabiyotlar, o'quv zallari bilan tanishildi. Professor Fabio Gvidetti bilan suhbatda ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi, fan dasturlari va sillabuslar, o'quv jarayonini tashkil qilish, oraliq va yakuni nazoratni tashkil qilish masalalari bo'yicha tajriba almashinuvi amalga oshirildi. Gvidetti ma'lumotiga ko'ra falsafiy fanlarni o'qitish jarayonida oraliq va yakuniy nazoratlari og'zaki so'rovga asoslanganligi ma'lum bo'ldi.

Siyosatshunoslik bo'limi xalqaro aloqalar bo'yicha kuratori professor Franchesko Tamburini bilan uchrashib kelgusidagi hamkorlik masalalari muhokama qilindi va aloqa o'rnatildi. Piza universiteti ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlarda ta'lim

jarayonida asosiy e'tibor maxsus adabiyotlarni tahlil qilish, mustaqil ta'lim orqali talabada malaka va ko'nikmani shakllantirishga yo'naltirilganligi aniqlandi. Piza universiteti professor o'qituvchilari bilan muloqotdan olingan natijalar keyingi ilmiy ishlarimiz uchun ishonchli metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Shu tariqa, safar davomida nafaqat nazariy bilimlar boyitildi, balki amaliy ko'nikmalar ham sezilarli darajada oshirildi (4-rasm).



**4-rasm. Ilmiy faoliyatdan lavhalar**

## Madaniy tadbirlar va ekskursiyalar

Almashinuv davrida ilmiy faoliyat bilan bir qatorda madaniy tadbirlar va turli ekskursiyalarda ham ishtirok etdik. Piza shahridagi diqqatga sazovor joylarga sayohat davomida Piza minorasi, cherkovi va baptisteriy, tarixiy maydonlar va

obidalar bilan yaqindan tanishdik. Shuningdek, Pizadagi Medichilar botanika bog‘iga tashrif buyurib, noyob qushlar va o‘simliklar turlari, ekologik muhofaza choralari haqida qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘ldik. Piza shahrining tarixiy qismi hamda Marina di Pisa Tirren dengizi sohiliga safar esa bizning jismoniy faolligimizni oshirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish hamda Italiya tabiati va iqlimining o‘ziga xos jihatlari bilan tanishish imkonini berdi. Piza va Luka shahri madaniy obidalari esa bizni Italiya uyg’onish davri san’atining nafislik va yuksak badiiy an’analari bilan tanishtirdi. Piza meriyasi tashkil qilgan bayram tadbirlarida qatnashish esa xalqning urf-odatlari, an’analari va ijtimoiy qadriyatlarini yaqindan o‘rganish uchun ajoyib imkoniyat yaratdi(5-rasm).



**5-rasm. Madaniy tadbirlar va ekskursiyalardan lavhalar**

## Piza universiteti an’analari bilan tanishuv

Piza universiteti xalqaro bo’limi taklifi asosida mazkur universitetning tarixiy rektorat binosiga tashrif buyurdik. Mazkur tashrif universitetning ko‘p asrlik an’analari, tarixi va qadriyatlarini saqlab qolganligi bilan alohida taassurot qoldirdi. Shuningdek, italyan madaniyati, qadriyatlari, oshxonasi va an’analari bilan tanishuv

jarayoni amalga oshirildi. Shu tariqa biz Italiyaning ta’limiy va madaniy hayoti bilan yanada yaqinroq tanishish imkoniga ega bo‘ldik (6-rasm).




**6-rasm. Piza va universitet an’analari tanishuv**

## Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Erasmus+ Xalqaro kredit mobillik dasturi bizning ilmiy va shaxsiy rivojlanishimizda beqiyos rol o‘ynadi. Italiyaning Piza shahrida bo’lib o’tgan almashinuv davrida nafaqat yangi ilmiy bilimlar va ko‘nikmalarga ega bo‘ldik, balki xalqaro akademik muhitda ishlash tajribasini ham orttirdik. Erasmus+ Staff week davomida Marokashning Cadi Ayyad universiteti professorlari Ghita Derkaviy, Ibrohim el Faqih, Peruning Ignatiy Loyola universiteti professori Veronika Paredes Velaskes, Jazoirning Djelfa universiteti professori Kuzu Abdulloh kabi professorlar bilan aloqa o’rnatildi va hamkorlik bo’yicha kelishib olindi.

Filologiya bo’limi professori Marko Sabatini bilan Piza universiteti rus tilini o’rganuvchi talabalarining TDSHUda rus tili o’quv kurslarida ishtirok etishi masalasi muhokama qilindi. Professor Sabatini bilan aloqa o’rnatildi. Sivilzatsiya va bilish formalari bo’limi professorlari Chiara Barbati, Fabio Gvidetti, Renata

Pepichellilar bilan kafedralar o’rtasidagi hamkorlikni o’rnatish va aloqalarni rivojlantirish bo’yicha kelishuvlarga erishildi. Professor Fabio Gvidetti bilan suhbatda ta’lim yo’nalishi o’quv rejasi, fan dasturlari va sillabuslar, o’quv jarayonini tashkil qilish, oraliq va yakuni nazoratni tashkil qilish masalalari bo’yicha tajriba almashinuvi amalga oshirildi. Gvidetti ma’lumotiga ko’ra falsafiy fanlarni o’qitish jarayonida oraliq va yakuniy nazoratlari og’zaki so’rovga asoslanganligi ma’lum bo’ldi. Siyosatshunoslik bo’limi xalqaro aloqalar bo’yicha kuratori professor Franchesko Tamburini bilan uchrashib kelgusidagi hamkorlik masalalari muhokama qilindi va aloqa o’rnatildi. Piza universiteti ijtimoiy-gumanitar yo’nalishlarda ta’lim jarayonida asosiy e’tibor maxsus adabiyotlarni tahlil qilish, mustaqil ta’lim orqali talabada malaka va ko’nikmani shakllantirishga yo’naltirilganligi aniqlandi.

Piza universitetida tashkil qilingan madaniy tadbirlar orqali boshqa italyan xalqining tarixi, urf-odatlari va qadriyatlari bilan tanishish bizning dunyoqarashimizni kengaytirdi. Ilmiy taqdimotlar va seminarlar esa kelgusidagi ilmiy faoliyatimizni yanada samarali qilish uchun katta turtki bo‘ldi. Ushbu safar davomida olingan tajriba va taassurotlar ilmiy faoliyatimizni rivojlantirish, yangi xalqaro hamkorliklarni yo‘lga qo‘yish, universitetimizda xalqarolashtirish jarayonini yanada rivojlantirishda hamda O‘zbekiston ta’lim tizimida ilg‘or yondashuvlarni tatbiq etishda mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, Erasmus+ dasturining biz kabi yosh olimlar uchun yaratgan imkoniyatlari kelgusida ham yurtimiz ta’lim va ilm-fan sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Erasmus+ Programme Guide 2025 European Commission
2. Pisa university official website: https://www.unipi.it/en/
3. European Commission Erasmus+ official website: https://erasmus-plus.ec.europa.eu

# HOW ACADEMIC MOBILITY SHAPES PERSONAL DEVELOPMENT? A COMPARATIVE VIEW OF TEACHING METHODS IN EUROPE AND CENTRAL ASIA

***Lina Abduakhit –*** *Ph.D student*
***Institution:*** *Karaganda Technical University named after Abylkas Saginov*
***Host institution:*** *Romanian-American University, Krakow University, Romania-Poland* ***E-mail****: linaabduahit@gmail.com*

*ERASMUS+ academic mobility scheme*
*19/10/2024 – 17/02/2025*

***Keywords****: Academic mobility, Erasmus+, personal development, teaching methods, student-centered learning, Central Asia, Europe, intercultural competence, soft skills, educational comparison, Kazakhstan, Romania, Poland, higher education reform.*

***Annotation.*** *This article explores the profound impact of academic mobility on personal and academic development through the author's firsthand experience as a student from Karaganda Technical University named after Abylkas Saginov (Kazakhstan) who participated in two Erasmus+ exchange semesters: at the Romanian-American University in Bucharest (2023–2024) and Cracow University of Technology in Poland (2024–2025). Comparing traditional Central Asian teaching methods – characterized by lecture-centered instruction, strong theoretical grounding, and teacher-led learning–with European approaches that emphasize active participation, critical thinking, group projects, independent research, and mentor-like professor–student relationships, the author demonstrates how exposure to contrasting educational cultures fosters adaptability, self-confidence, intercultural competence, and a balanced blend of discipline and creativity. Beyond technical knowledge, academic mobility is presented as a transformative process that enhances soft skills (time management, communication, teamwork), promotes personal independence, and cultivates a global mindset. The article concludes with a call to integrate elements of European interactive and student-centered pedagogy*

*into Central Asian higher education to better prepare students for an interconnected world.*

## Introduction

Academic mobility isn't just about picking up new facts or theories - it really changes the way you think, learn, and talk to people. When I studied at Karaganda Technical University named after Abylkas Saginov, I got the chance to spend time at two European universities: the Romanian-American University in Bucharest, and Cracow University of Technology in Poland. Jumping between these different systems, I saw firsthand how teaching styles shape not only what you know, but how you grow as a person. In Europe, classes pushed me to join discussions, do my own research, and think for myself. There, it's all about questioning, sharing your ideas, and learning by doing. Back home in Central Asia, though, things run differently - education leans towards theory and the teacher usually drives the lesson. Looking at both sides, I realized academic mobility goes way beyond grades or technical skills. It builds adaptability, boosts your confidence, and opens your eyes to new cultures. In this paper, I dig into how studying abroad shapes personal growth. I also make the case for bringing more European-style teaching into Central Asian universities, so we can help students become more open-minded and ready for the world.

## How academic mobility shapes personal development? A comparative view of teaching methods in Europe and Central Asia

The Academic mobility programme really stands out when it comes to helping students move around Europe and dive into new cultures. It's more than just a chance to study somewhere else - it's about seeing the world through different eyes, picking up new skills, and figuring out who you are in the middle of it all. For students from Central Asia, studying abroad isn't just about getting better at academics. It's a way to connect with the world and change how you see yourself.

I'm studying Information Security Systems at Karaganda Technical University named after Abylkas Saginov, and I got lucky enough to join two

academic mobility exchange programmes. The first time, I went to the Romanian-American University in Bucharest for the autumn semester of my second year (October 2023 to February 2024). There, I studied Computer Science for Economics with local students. The second time, I spent the autumn semester of my third year (October 2024 to February 2025) at Cracow University of Technology in Poland, learning Computer Science and Telecommunications alongside other exchange students from all over.

Each place taught me something different. In Romania, classes felt more laid-back and everyone worked together. In Poland, things were stricter and more organized. Still, in both places, professors stood out - they were always open, professional, and ready to help or encourage us to try new things, like internships or research. Experiencing these differences made me think about how teaching styles really shape how we learn, and how studying abroad helps students grow into independent, confident people who can handle a global world.

In this paper, I want to look at how academic mobility shapes personal and academic growth, and at the same time, compare teaching styles in European and Central Asian universities.

I've studied in two pretty different worlds - first in Kazakhstan, my home country, and then in Romania and Poland thanks to the academic mobility program. Seeing both sides up close really changed the way I think about learning, motivation, and how people grow.

Back at Karaganda Technical University, almost everything revolved around lectures. You sit, listen, take notes, and try to keep up while the professor explains things. Sure, we had labs and practical classes, but they usually meant following instructions and finishing set assignments. Open discussions or creative projects? Not really a thing. Most of us just focused on grasping the theory and doing well on exams. Even outside the classroom, things felt pretty structured - conferences, some research, maybe a rare cultural event - but it never felt that lively or interactive. Still, I can't deny the system works for building discipline, strong theory, and a sense of order. That's something Central Asian education does really well.

Then came Europe, and everything flipped. In Romania and Poland, classes buzzed with energy. We worked in groups, did presentations, and the professors actually wanted to hear what we thought. Instead of just copying notes, we tackled projects where we could show off our own ideas. Even in technical courses, it wasn't just about the facts - you had to communicate, solve problems, and think on your feet. The teachers felt more like mentors than authority figures. They pushed us to think for ourselves, tie theory to real life, and own our learning. The assessment system was way more flexible, too. If you messed up, you got feedback and a second chance, not just a bad grade.

What really stuck with me was the vibe in class. In Europe, students and professors treated each other almost like equals. At Romanian-American University, everyone was friendly and relaxed, which made it easy to speak up. Over at Cracow University of Technology, things were a bit more structured but still open, which brought out both discipline and real teamwork. Both approaches worked in their own way - they kind of completed each other.

Living through both systems showed me something important. The Central Asian method gives you a rock-solid foundation and serious discipline. The European style? It sparks creativity, independence, and communication. Blending these helped me find my own balance between structure and freedom. I've come out feeling more confident, able to dig deep into theory but also to think on my feet and bring my own ideas to the table.

Trying out new teaching styles really pushed me to grow and believe in myself as a student. Academic mobility didn't just give me fresh knowledge - it completely changed the way I approach learning, talk to people, and organize my life. Living and studying in two different European countries threw me into situations where I had to adapt fast, manage my time on the fly, and own my choices. Slowly but surely, I found myself becoming more independent, more confident, and more driven to keep getting better - both in school and outside it.

One of the biggest takeaways from academic mobility was building up my soft skills. Being far from home, I had to figure things out on my own, plan my days,

and find a balance between studying and actually enjoying life. I got better at managing my time because I had to juggle group projects, prep for presentations, and hit deadlines - all in a totally international setting. Working with classmates from all over taught me how to communicate clearly, respect differences, and really pull together as a team. That's when I realized academic success isn't just about what you know. You need to adapt and connect with people, too.

Getting used to new cultures shaped me just as much. In Romania, I found this welcoming vibe that made it easy to fit in with other students. We'd team up for projects and go to cultural events together, so breaking through the language barrier and speaking up in English got a lot easier. Then in Poland, the university felt more structured, which kept me disciplined but also pushed me to look for new ways to learn and grow. Joining international student activities and diving into different cultures opened my mind. I started to really value diversity, both in the classroom and in daily life.

All of these experiences got me thinking about new directions for the future. I became more interested in how technology, education, and international teamwork all connect. The support I got from professors abroad motivated me to keep sharpening my research skills and even look into more study options in Europe. Now, I see academic mobility as way more than just a short-term exchange - it's a turning point that shapes your goals and how you see the world.

Looking back, academic mobility truly changed how I see myself and what I can do. I learned how to study on my own, talk to people from different backgrounds, and value both flexibility and discipline. Most of all, I learned that growing as a person and as a student really go together, and that every new experience - whether it's tough or exciting - helps you become more open-minded and ready for the world.

# XALQARO KREDIT MOBILLIGI: TA'LIM VA ILMIY TADQIQOTLAR SIFATINI OSHIRISHDAGI STRATEGIK YONDASHUV

***Elgiza Sobirova** – Talaba*
***Institution:** Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti*
***Host institution:** Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*
***Tel.:** +99891.456-88-05, **E-mail**: alibek_8805@mail.ru*

***Kalit so'zlar:** Xalqaro kredit mobilligi, ta'lim sifati, ilmiy tadqiqotlar, yoshlar, global fikrlash, akademik almashinuv, xalqaro hamkorlik.*

***Annotatisya.** Ushbu maqolada Erasmus+ dasturi doirasidagi xalqaro kredit mobilligining ta'lim va ilmiy tadqiqotlar sifatini oshirishdagi roli yoritilgan. Muallif mobillik dasturlarining yoshlar salohiyatini oshirish, ilmiy izlanishlarni rivojlantirish va global fikrlashni shakllantirishdagi ahamiyatini tahlil qiladi. Shuningdek, xalqaro tajriba almashinuvi orqali ta'lim va fan sohasida qanday innovatsion yondashuvlar shakllanishi mumkinligi muhokama qilingan. Xususan, talaba va yosh olimlarning xorijiy oliy ta'lim muassasalarida tahsil olishi va ilmiy izlanishlar olib borishi ularning kasbiy va shaxsiy salohiyatini oshirishda, tanqidiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda qanday rol o'ynashi o'rganiladi. Maqolada xalqaro akademik almashinuv orqali ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar – yangi pedagogik yondashuvlar, texnologiyalar, ilmiy infratuzilmaga ega bo'lgan muhitlar bilan tanishish va tajriba almashish imkoniyatlari – tahlil etilgan. Bundan tashqari, ilmiy tadqiqotlar sohasida xalqaro kredit mobilligini kuchaytirish orqali innovatsion izlanishlarni amalga oshirish, ilmiy hamkorlikni kengaytirish va xalqaro ilmiy grantlarga kirish imkoniyatlarining ortishi kabi jihatlar ko'rib chiqiladi. Xalqaro tajribaning milliy ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi, shuningdek, mahalliy yosh olimlar va tadqiqotchilar salohiyatini rivojlantirishda tutgan o'rni asoslab beriladi. Maqolada shuningdek, global mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, xalqaro madaniy muhitda moslashuvchanlik va ko'p tillilikni rivojlantirish, ta'limda barqaror rivojlanishga erishish kabi dolzarb masalalarga ham e'tibor qaratiladi. Tadqiqot*

*natijalariga ko'ra, xalqaro kredit mobilligi nafaqat shaxsiy rivojlanish omili, balki ta'lim va fan taraqqiyotiga xizmat qiluvchi strategik resurs sifatida qaralishi lozim degan xulosa chiqariladi.*

**Kirish**

Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimining xalqaro miqyosda integratsiyalashuvi inson kapitalini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Xususan, Erasmus+ dasturi doirasida amalga oshirilayotgan xalqaro kredit mobilligi talaba va yosh olimlarga chet elda tahsil olish, malaka oshirish va ilmiy izlanishlar olib borish imkoniyatlarini yaratmoqda. Bu jarayon nafaqat shaxsiy salohiyatni oshiradi, balki mamlakat ta'lim tizimining raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

Xalqaro mobillik yoshlar uchun zamonaviy bilim va tajribalarni egallash, boshqa madaniyatlar bilan tanishish hamda global fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, xorijiy oliy ta'lim muassasalaridagi zamonaviy ilmiy uslublar, laboratoriya sharoitlari va akademik yondashuvlar yosh olimlarga o'z yurtlarida qo'llash mumkin bo'lgan innovatsion g'oyalarni olib kirish imkonini beradi. Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, kredit mobilligidan foydalangan talabalar o'rtacha yuqoriroq akademik natijalarga erishadilar, mustaqil fikrlash va tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bundan tashqari, ular turli millat vakillari bilan samarali muloqot qila olish qobiliyatiga ega bo'ladilar, bu esa ularni xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh qiladi. Ilmiy tadqiqotlar sohasida esa xalqaro hamkorlik yangi loyihalar, qo'shma ilmiy maqolalar va grantlarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu orqali ilm-fan sohasida sifatli natijalarga erishish mumkin bo'ladi. Jumladan, xorijiy hamkorlikdagi tadqiqotlar orqali mahalliy muammolarni global kontekstda o'rganish va ularni hal etish bo'yicha ilg'or tajribalarga tayanish mumkin.

Shu boisdan, Erasmus+ kabi dasturlar orqali amalga oshirilayotgan xalqaro kredit mobilligi nafaqat individual o'sish, balki ta'lim va ilmiy tadqiqotlar sifatini oshirish, shuningdek, butun jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan kuchli

mexanizmga aylanmoqda. Bu jarayonni yoshlar o‘z imkoniyatlari sifatida ko‘rishlari va undan faol foydalanishlari zarur. Ushbu maqolada xalqaro ta’lim tizimidagi muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lgan **xalqaro kredit mobilligi**ning zamonaviy ta’lim va ilmiy tadqiqotlar sifatiga ko‘rsatadigan ko‘p qirrali ta’siri har tomonlama tahlil qilinadi. Ayniqsa, **Erasmus+ dasturi** doirasida amalga oshirilayotgan akademik almashinuvlar, talaba va o‘qituvchilarning chet eldagi oliy ta’lim muassasalarida tahsil olishi, malaka oshirishi va qo‘shma ilmiy loyihalarda ishtirok etishi orqali nafaqat individual darajadagi bilim va ko‘nikmalarni, balki milliy ta’lim tizimi va ilmiy muhitni yuksaltirishdagi salmoqli ahamiyati ochib beriladi.

Tadqiqotda xorijiy tajriba asosida shakllanayotgan **innovatsion pedagogik yondashuvlar**, ilg‘or ilmiy metodologiyalar, zamonaviy texnologiyalar va akademik erkinlik kabi omillar xalqaro mobillik doirasida ishtirok etayotgan yoshlarning intelektual va ilmiy salohiyatini oshirishdagi o‘rni yoritiladi. Xalqaro almashinuvlar orqali yoshlar **multimadaniy muhitda faoliyat yuritish**, **xalqaro tarmoqlarda professional aloqalar o‘rnatish**, **til kompetensiyalarini rivojlantirish** kabi zarur ko‘nikmalarga ega bo‘layotgani asosli dalillar bilan ko‘rsatib berilgan. Bundan tashqari, maqolada xalqaro kredit mobilligining **ilmiy izlanishlar jarayoniga kiritayotgan yangilanishlar**, ya’ni ilmiy maqolalarning sifati, impakt faktorga ega jurnallarda chop etish imkoniyatlari, xorijiy hamkorlar bilan qo‘shma ilmiy loyihalar va grantlar asosida ishlash kabi yo‘nalishlar tahlil qilinadi. Ilmiy hamkorlikning kuchayishi, axborot resurslari va ilmiy infratuzilma imkoniyatlaridan keng foydalanish natijasida mahalliy olimlar va tadqiqotchilar uchun yangi ufqlar ochilayotgani ta’kidlanadi. Shuningdek, maqolada xalqaro kredit mobilligining **iqtisodiy, sotsial va madaniy** jihatlari ham ko‘rib chiqilgan. Jumladan, ta’lim olgan yoshlarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi, global muammolarga nisbatan ongli yondashuvi, barqaror rivojlanish maqsadlariga hissa qo‘shish salohiyati e’tiborga olinadi. Akademik mobillik natijasida yoshlarda vujudga kelayotgan **ijtimoiy faollik, innovatsion tafakkur va liderlik qobiliyatlari** milliy taraqqiyotda hal qiluvchi omil sifatida ko‘rilmoqda.

